

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida

UDK 621.315.592

NABIYEVA ODINA RAFIKJONOVNANING

**«DEVIANT XULQLI O‘SMIRLARNI PEDAGOGIK KORREKSIYALSH
TEXNOLOGIYASI»**

MAVZUSIDAGI

**5A110901 – Pedagogika nazaryasi va tarixi (yo`nalishlar bo`yicha)
mutaxassisligi bo`yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

Namangan – 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Deviant xulq-atvor muammosining pedagogik psixologik adabiyotlarda o'rganilganligi.....	14
1.1. Deviant xulq-atvor haqidagi nazaryalar tahlili.....	14
1.2. O'smirlik deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatid.....	23
1.3. O'smirlik davrida deviant xulqning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.....	32
I bob bo'yicha xulosa.....	39
II BOB. O'smirlik davridagi deviant xulqni pedagogik tashxis qilish usuli.....	40
2.1. Deviant xulqni tashhis qilish usullari.....	40
2.2. Tadqiqot metodologiyasi , metodikasi va uni o'tkazish bosqichlari	
2.3. Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili.....	55
II bob bo'yicha xulosa.....	68
III BOB. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlar.....	69
3.1. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlarga texnologik yondashuv.....	69
3. 2. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlar dasturi.....	85
3.3. Korreksion ishlarni yakuni va samaradorligini oshirish usullari.....	94
III bob bo'yicha xulosa.....	97
Umumiy xulosa va tavsiyalar.....	98
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	102
Ilovalar.....	106

KIRISH

Tadqiqotni asoslanishi va dolzarbligi. Mamlakatimizda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning uchinchi sifat bosqichi o’z kasbining zukkolari, o’ta zehqli, kuchli intellektual imkoniyatlar egasi, o’zida mukammal dunyoqarash va boy ma’naviyatni mujassamlashtirgan salohiyatli kadrlar tayyorlash, ularni jahon hamjamiyatida raqobatbardoshligiga erishishni maqsad qilib qo’yadi. «Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarishni har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash, keyinchalik puxta o’zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa turdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi. [1.2.10-bet].

Respublikamiz o’z mustaqilligiga erishgandan so’ng, ta’lim sohasini bosqichma–bosqich isloh qilish ishiga katta e’tibor berilmoqda. Har tomonlama rivojlangan, ongli barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Chunki, yurtimizning ertangi kuni bugungi yoshlar qo’lidadir. Shuning uchun sog’lom, ongli, bilimdon, dunyoqarashi keng shaxslarni tarbiyalash vazifasi davlatimiz siyosatining ustivor yo’nalishlari darajasiga ko’tarildi. [1.1. 11-bet].

BMTning o’smirlar muammolari bilan shug’ullanuvchi YuNISEF tashkilotining ijtimoiy monitoring natijalarida ham O’zbekiston bu borada o’ziga xos yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri ekanligi ko’rsatiladi

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Barchangiz yaxshi bilasizki, kelajak avlod haqida qayg’urish, sog’lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir”[1.3. 42-b].

Mamlakatimizda sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o’z ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to’liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan

shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan maruzasida yoshlar va ularning tarbiyasi haqida quydagi fikrlarini ta'kidlab o'tadilar. "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" dasturidan yoshlarimizni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o'rin egallashi tabiiydir. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, yangi-yangi ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yosh oilalar uchun uy-joylar qurush, yoshlarni ish bilan taminlash, ularni tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish bo'yicha boshlangan ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'taramiz. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi vazifamiz deb bilamiz.

Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "Ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarni xafi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarni chuqur ma'nosiga va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Haqiqatan ham, hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bo'lib qolmoqda. Bugungi keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla faollari bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarni yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakillangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz ayniqsa, qiz bolalarning zamomnaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib,

hayotdan munosib o'rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.[1.7. 1-2-bet]

O'zbekiston Respublikasi Prezideneti Sh. M. Mirziyoyev 2016-yil yakunlarida "Eng avvalo yoshlar va aholi o'rtasida mamlakatimizning boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib qilish, johon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish ustufor vazifalardan hisoblanadi", deb takidlab o'tdi. [1.9.102 bet]

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risi"dagi Farmonida "aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularni salomatligini saqlash, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta mahsus va oliy ta'limni sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi'. [1.10. 1-2 bet]

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohatlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblangan ta'limni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, ular ongiga mustaqillik g'oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo'yimoqda. [1.4. 40-bet]

Sir emaski, insonning xulq-atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos «uslublari»ning mavjudligi hech qachon va hech kimda , hech qanday shubha tug'dirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o'zaro muloqoti, o'zaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlariga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Ma'lumki, har bir jamiyat o'zining qat'iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan me'yorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi

vazifaga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat «to'g'ri» yoki « noto'g'ri » « yaxshi » yoki « yomon » deb tavsiflanadi. Bunday tushunishda me'yorning tabiiy bo'g'lanishi, ya'ni unga aloqador tushuncha «buzilish» atamasi bo'lib hisoblanadi. Odatda «buzilish» atamasi har qanday «kasal» va «kasallik» xususida mulohaza yuritilganda ham ishlatiladi. Chunki buzilish aniq termin bo'lmasdan, balki bu tushuncha orqali xulq-atvor yoki uning simptomlari bilan bog'liq belgilar tushuniladi. Lekin psixik buzilishlar guruhiga alohida ijtimoiy og'ishlar yoki shaxsiyatsiz vazifalar kirmaydi. Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta'sirlarning ob'yekti hisoblanadi (E.G'. G'oziev, 2002). Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz ba'zan inson haqida fikr yuritganimizda sog'liq, kasallik va uchinchisi sog'liqqa ham, kasallikka ham qo'shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to'g'ri keladi. [2.1. 87-bet].

Jahon fani, xususan tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida sabablar to'rt xil bo'ladi: moddiy, faol (ta'sir qiluvchi), shakliy va tugallovchi sabablarni ko'rsatib o'tadi. Moddiy sabablar sog'liq va kasallik negizlarida paydo bo'ladi. Eng yaqin negiz a'zo ruhdur. Ta'sir qiluvchi sabablar odam gavdasining holatlarini o'zgartiruvchi yoki o'zgarmagan holda saqlovchi sabablardir. Jumladan uyqu va uyg'oqlik ham sabablardan biridir. Bir yoshdan boshqa bir yoshga o'tish, yosh, jins e'tibor bilan farqlash ham ta'sir qiluvchi sabablardandir. Shakliy sabablar — mijozlar ulardan keyin paydo bo'ladigan quvvatlar va tarbiyalardir. Tugallovchi sabablar faoliyat (ishlar)dir. Faoliyatni o'rganishga quvvatlar va ularni tashuvchi ruhlarni o'rganish ham kiradi. Tabibning tasavvur qilib, dalil keltirmog'i zarur bo'lgan

narsalar kasalliklar, ularning o'ziga xos sabablari, alomatlari va qanday qilib kasallikning ketkazilishi va sog'liqni saqlashidir.[2.16.78- bet]

Aynan o'smirlik yoshida ijtimoiy me'yorlarga har xil qarash tufayli ko'pincha, uning xulq-atvori me'yorlarning teskarisi ekanligini hisobga olib, salbiy me'yorlarning «oynadagi aksi» deyishadi. [2.27.182-bet].

O'smirlik davriga xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni tan olmasligi, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Bunday toifadagi o'smirlar xulqidagi o'zgarishlarga binoan quyidagilarga:

- xulq ifodalanishiga ko'ra, yuqori tajovuzkor (agressiya) ko'rinishidagilar;
- jinoyatchilik «qurboniga» aylanuvchilar;
- tadbirkorlik faoliyatida barvaqt faol ishtiroki tufayli «erta» kamol topganlar;
- muomala va o'zaro munosabatlarda «qiyinchilik»ni his etuvchilar kabi kategoriyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir. [2.31. 144-bet].

Mazkur muammoning tadqiqi bilan shug'ullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin. Xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar (etiopatogenezi) tibbiy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish miqdori - kompleks yondashuvni talab etadi. Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar, ularning intellektual-emotsional-irodaviy rivojlanishdan ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda. [2.33. 46-bet].

Hozirgi zamonda turli yosh davrlariga xos deviant xulqining pedagogik korreksiyasi va uni bartaraf qilishga oid yangi texnologiyalar yaratish xususidagi masalaga oydinlik kiritishga e'tibor haddan ziyod ortgan. Zamonaviy

psixologiya va pedagogika fanlarida ushbu muammoga bag'ishlangan psixoanalitik, frustratsion, hamda bixevioristik tadqiqotlarning o'rni ham salmoqlidir. Ammo, bizningcha, tarbiyasi «qiyin» o'smirlarning patologik xulq mexanizmlari, mazkur «qiyin»lik tasnifiga asoslangan tipologiyaning modelini yaratish dolzarb muammoligicha qolmoqda. Deviant xulqning fenomenologiyasi, ya'ni deviant xulqning turlari, deviant xulq tiplarining o'zaro aloqadorligi, deviant xulqning tasnifi, bu o'zgarishlar nafaqat o'smir uchun, balki ijtimoiy guruh va jamiyat uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. [2.19. 156-bet].

Yuqoridagi fikrlar o'smir xulq-atvoridagi deviantlikni pedagogik korreksiya qilish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi:

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta – maxsus ta'limi vazirligi, Namangan davlat universitetining ilmiy rejalari va pedagogika va psixologiya kafedrasining ilmiy- tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi: O'smirlik davrida namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvorning psixologik mexanizmlarini o'rganish, ularni pedagogik korreksiya qilish metodlarini tahlil qilish, moslashtirish va amaliyotga tadbiq etish, o'smirlar bilan olib boriladigan korreksion va texnologik ishlar dasturini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot predmeti: O'smirlik davrida namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvor

Tadqiqot ob'yekti: Voyaga yetmaganlarnazoratidahisobda turadigan, “xavfli guruh” va deviant xulqqa moyil o'smirlar

Tadqiqot bazasi: Namangan viloyati Chust tumani Xisorak QFY va Namangan shahar Ozod MFY

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- agar, xulq-atvorida deviantlikka moyil o'smirlar bilan o'z vaqtida psixodiagnostik, psixoprofilaktik, korrektsion ishlar olib borilsa;
- ta'lim-tarbiya jarayonida o'smirlarining individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda munosabat o'rnatilsa;

- oilada ota-ona va o'smir munosabatlarining eng samarali uslublari qo'llanilsa o'smirlar deviant xulq-atvorining rivojlanish tendensiyasini kamaytirishga erishish mumkin;
- deviant xulqni pedagogik korreksiyalashni yangi texnologiyalarini ishlab chiqish orqali bu holatni oldini olishga erishish mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tarbiyasi «qiyin»lik va u bilan bog'liq deviant xulqining vujudga kelish jarayoni: madaniy (M. Mid, E. Fromm), iqtisodiy (G. Kayzer, B. Xolist, G. Shnayder), ijtimoiy (S.D. Arzumanyan, N.P. Dubinin, V.N. Kudryavtsev), salomatlik (M.I. Buyanov, P.B. Gannushkin, A.I. Zaharov, I.I. Kovalev, Z.F. Kamaletdinova, A.E. Lichko), ijtimoiy-psixologik (M.A. Alemaskin, S.A. Belicheva, L.I. Bojovich, G.G. Bochkareva, A.I. Dolgova, YA.L. Kolominskiy, V._M. Karimova, M.N. Ovchinnikova, E.G'. G'oziev), pedagogik (A.S. Belkin, N.N. Vertsinskaya, L.S. Vigotskiy) kabi keng qamrovli ta'sirlar oqibati ekanligi aniqlangan. Shuningdek, bir qator psixologlar (M.A. Alemaskin, N.V. Jutikova, I.S. Kon, I.A. Furmanov) salbiy xulq sabablarini tahlil qilar ekanlar, uning oldini olish va tarbiyaviy chora-tadbirlarni tashkil qilishda psixologik-psixologik omillarning ahamiyatiga muhim o'rin beradilar. Shuningdek N.Komilovani "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmada bolalarning og'ishgan xulqini psixologiyasining dolzarb masalalari: ushbu ko'rinishning fenomenologiyasi, turlarning tasnifi, determinasiya va ishlash mexanizimlari, ijtimoiy-psixologik prevensiya va intervensiyaning usullari ko'rib chiqiladi. N.Komilova muallifligidagi "Ijtimoiy rehabilitatsiya" o'quv qo'llanmasida ekstremal vaziyatlar inson psixologiyasining dolzarb masalalari, ekstremal vaziyatlarda yashab ketish va jabr ko'rgan shaxsga dastlabki psixologik yordam ko'rsatish usullari bo'yicha tavsiyalar to'plamini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Deviant xulq muammosi yoritilgan ilmiy adabiyotlarni tahliliy o'rganish.
2. O'smirlik davrida deviant xulq-atvor shakllanishining umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini tadqiq qilish hamda asoslab berish.

3. O'smirlik davridagi deviant xulq-atvorga moyillik xususiyatlarini korreksiya qilish metodikalarini tahliliy o'rganish va tadqiqot metodikasini tanlash.
4. Tadqiqotning eksperimental modelini ishlab chiqish.
5. Tadqiqot natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilish.
6. Xulq-atvorida deviantlikka moyilligi mavjud o'smirlar bilan olib boriladigan korreksion ishlar dasturini ishlab chiqish.
7. Deviant xulq-atvorga moyil o'smirlarning ota-onalari, pedagoglar, amaliy psixolog, ijtimoiy pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov asarlari va nutqlarida ilgari surilgan barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi fikr-mulohazalari, Prezidentimiz SH.Mirziyoyenning asarlari va nutqlaridagi ta'lim va tarbiya haqidagi fikr va mulohazalari, sharq mutafakkirlarining inson bilish faoliyatining o'ziga xosligi haqidagi qarashlari, psixologiya fanining determinizm, ong va faoliyat birligi, psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyillari, psixolog va pedagoglarning o'smirlik davri va deviant xulq-atvor haqidagi tadqiqotlari asosida aniqlangan psixologik va pedagogik qonuniyatlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari:

1. **Nazariy metodlar-** tadqiqot muammosiga doir pedagogik va psixologik adabiyotlarning qiyosiy-tarixiy tahlili.
2. **Empirik metodlar-**kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test, hujjatlarni tahliliy o'rganish, avtobiografiya.
3. **Matematik-statistik metodlar-**tadqiqot natijalarining miqdor va sifat tahlili, o'rtacha arifmetik qiymatni, standart og'ishlar va korrelyatsion bog'lanishlarni aniqlash metodlari.

Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:

1. O'smir shaxsidagi deviant xulqqa moyillik ularning yoshga xos xususiyatlari, tarbiyasidagi "qiyinlik", o'tish davriga xoslik bilan bog'liq.

2. O'smirlik davrida deviantlikka moyillikni shakllanishiga ham biologik, ham ijtimoiy omillar ta'sir etadi, biroq ijtimoiy omil har doim yetakchilik qiladi.
3. O'smirning o'ziga, atrofdagilarga, voqea-hodisalarga munosabati, dunyoqarashi, irodaviy sifatlari, hissiy holatlari - xavotirlanish, hissiy zo'riqish va boshqa kechinmalari unda turli antiijtimoiy ehtiyojlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.
4. O'smir shaxsidagi mavjud ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatining cheklanganligi o'rtasida qarama-qarshilik ularda deviantlikka moyillikni vujudga keltiradi.
5. O'smirlik davrida shakllangan tajovuzkorlik sifatlari, xarakter aktsentuatsiyasi tipi va barqaror shaxs xususiyatlari ta'sirida o'zini o'zi tasdiqlash, o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari ham ularni qonun-qoidalarni buzish harakatini sodir etishga undaydi.

Tadqiqotning nazariy yangiligi:

Tadqiqotning nazariy yangiligi quyidagilarda o'z aksini topgan:

- inson hayotining eng muhim davrlaridan, shu bilan atrofdagilar uchun eng murakkab bo'lgan o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari haqidagi turli nazariyalar, yondashuvlar tahlili keltirilgan, mazkur davr uchun xos bo'lgan vaziyatli va barqaror xususiyatlar mexanizmlari izohlangan;
- har qanday submadaniyatda mavjud bo'lgan shaxsning og'ishgan xulq-atvori va uning tabiati to'g'risidagi nazariy ma'lumotlari tahliliy o'rganib chiqilgan;
- deviantlikni keltirib chiqaruvchi omillar tasnifi keltirilgan, o'smirlik davridagi deviantlikning motivatsiyasi aniqlangan;
- deviant xulq-atvor va shaxsning boshqa xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik masalasi ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy yangiligi: Tadqiqot ishida o'smirlik davridagi deviant xulqni pedagogik korreksiyalash texnologiyalari tavsiya etilgan, mazkur tipga mansub o'smirlar bilan faoliyat olib borish yuzasidan psixologlar, pedagoglar, o'smirlarva ularning ota-onalariga amaliy tavsiyalar, dasturlar ishlab chiqilganligidan iborat.

Tadqiqot bosqichlari:

Ilmiy izlanish 2015-2017 yillarda quydagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Asoslovchi tajriba bosqichi (2015-2016 yillar)da mavjud muammoning o'rganilish holati aniqlandi, tadqiqot uchun pedagogik muammo tanlandi; tadqiqotning maqsadi, vazifalari va ilmiy farazi belgilandi; predmetni o'rganishning maxsus metodikasi sinovdan o'tkazish uchun tadqiqot bazasi va ob'yekti aniqlandi, tajriba guruhlarini shakllantirildi.
2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichi (2016-2017 yillar)da olib borilayotgan amaliy harakatlar mazmuni, shuningdek, o'smirlar xulq-atvorida namoyon bo'ladigan deviant xulqqa xos individual xususiyatlarini o'rganish metodikasi amaliyotga tadbiiq etildi va sinovdan o'tkazildi.
3. Tasdiqlovchi tajriba bosqichi (2016-2017 yillar)da tajriba-sinov ishlarining natijalari o'rganildi va tahlil qilindi; amaliyot uchun tavsiya etilayotgan metodikaning samaradorligi va olingan natijalarning haqqoniyiligini baholash maqsadida matematik-statistik tahlil amalga oshirildi; tadqiqot muammosi bo'yicha to'plangan nazariy ma'lumotlar va tajriba-sinov ishlarining amaliy natijalari muayyan tizimga solinib, dissertatsiya ishi shaklida rasmiylashtirildi.

Natijalarning joriy qilinishi vaishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi):

Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari Namangan shahridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'limida olib borildi. Mavzu yuzasidan materiallar asosida ilmiy-amaliy anjumanlarda maqolalar bilan qatnashildi. Ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar ta'lim jarayoniga tadbiiq etildi.

Natijalarning e'lon qilinganligi:

Tadqiq etilgan muammo yuzasidan jami 2 ta ilmiy maqola va tezis e'lon qilingan bo'lib, ular respublika miqyosida tashkil etilgan ilmiy-amaliy anjuman va jurnallar to'plamida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:

Dissertatsiya ishi kirish, asosiy mazmunni yorituvchi uchta bob, 9 paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya ishining mazmuni 112 bet hajmda yozma matnda

bayon qilingan bo'lib, unda 4 ta jadval, 4 ta diogramma va 50nomdagi adabiyotlar ro'yxati mujassamlashgan.

I Bob. Deviant xulq-atvor muammosining pedagogik psixologik adabiyotlarda o'rganilganligi

1.1. Deviant xulq-atvor haqidagi nazaryalar tahlili

Deviant tushunchasi lotincha «deviatio» so'zidan olingan bo'lib, og'ish, chetga chiqish degan ma'noni bildiradi. Deviant xulq-atvorli kishilarni xulqi og'ishganlar deb ham ataladi. [2.3. 392-bet].

Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida turli xil qarashlar mavjud. Jinoyatchilikning boshqa shakllarini izohlashga bo'lgan dastlabki urinishlar asosan biologik tabiatga egadir. Biologik nazariya tarafdorlarning fikricha, jinoyatchilarning bosh chanog'i va miyasining tuzilishi qonunga amal qiluvchi kishilarning miya tuzilishidan farq qiladi.

XIX asrning 70-yillarida faoliyat ko'rsatgan italiyalik kriminalshunos Chezare Lombrozo «Ba'zi odamlar jinoiy mayllar bilan tug'iladilar va ular ibtidoiy insonlar tipiga mansub bo'ladilar», degan xulosaga keldi. Uning fikricha, jinoyatchi tiplarni bosh chanog'i shakliga qarab aniqlash mumkin. U ijtimoiy tajribaning kriminal xulq rivojiga ta'sirini inkor etar edi, uning asosiy g'oyasi-ko'pchilik jinoyatchilarning biologik jihatdan degenerativ va defektli ekanida edi. [2.20. 284-bet].

Richard Daygdeyglning fikricha, «ba'zi jinoyatkorona xulq-atvor shakllanishi uchun xos bo'lgan mayllar doimo avloddan-avlodga o'tib turadi». Biologik omil va jinoyatga mayl orasidagi bog'liqlik g'oyasi Vilyam Sheldon ishlarida 1940 yillarda qaytadan tiklandi. Sheldon odamlarning 3 jismoniy tipini ajratib ko'rsatdi:

Mezomorf tip: (mushakdor, faol)

Ektomorf tip: (suyak tizimi yaxshi rivojlangan)

Endomorf tip: (to'lalikka moyil odamlar)

Uning fikricha, ulardan biri – mezomorf tip huquqbuzarlikka mayl bilan bevosita bog'liq.[2.33.52- c.]

Boshqa olimlar tomonidan keyinroq o'tkazilgan tadqiqotlar ham shunga yaqin natijalar berdi. Hozirgi kungacha bunday qarashlarning himoyachilari

bo'lsa ham, u tadqiqotlar kuchli tanqidga sabab bo'ldi. Agar hatto odamning jismoniy tuzilishi o'rtasida bog'liqlik mavjud, deb faraz qilsak ham, bu irsiyatning ta'siri masalasini ravshanlashtirmaydi. V.Sheldon jinoyatchilik bilan bog'lagan mushakdor odamlar kuch talab qilgani uchun ham banday faoliyatiga jalb etilgan bo'lishi mumkin.

Jinoyatning psixologik nazariyalari ham, biologik nazariyalar kabi jinoiy mayllarni shaxsning muayyan tipi bilan bog'lar edi. Jinoyatni psixologik jihatdan talqin qilishga Freyd g'oyalari, garchi Freydning o'zi kriminologiya bo'yicha hech narsa yozmagan bo'lsa ham muayyan ta'sir o'tkazdi. Keyingi mualliflar unchalik ko'p bo'lmagan odamlarda «axloqsiz» yoki psixopatik shaxs rivojlanadi, degan fikr bilan uning g'oyalariga asoslanishdi. Freyd fikriga ko'ra, rivojlanishning Edip bosqichida, ilk bolalikda o'rganiladigan, o'zini cheklashlardan ko'pchilik axloqiy sifatlar vujudga keladi. Ota-onalar bilan o'ziga xos munosabatlar shakllanishi oqibatida, ba'zi bolalarda bunday cheklov shakllanmaydi va demak axloqiylik tuyg'usi asosan mavjud bo'lmaydi. Psixopatlarni zo'rlikdan lazzat oladigan odamovi shaxslar sifatida tavsiflash mumkin.[2.37. 115-bet].

Freyd ta'limoti yoki boshqa psixologik kontseptsiyalardan kelib chiqadigan jinoyatning psixologik nazariyalari nari borsa jinoyatning ba'zi jihatlarini tushuntirib berishi mumkin. Jinoyatchilardan juda ozchiligi boshqa aholidan farq qiladigan xususiyatga ega bo'lsa ham, bunday xususiyatlar barchaga xos bo'lishining ehtimolligi oz. Jinoyatlarning xillari shunchalik ko'pki, ularni amalga oshirayotganlar bir xil psixologik sifatlarga ega, deyish haqiqatdan yiroqdir.

Bordi-yu biz jinoyatning faqat bir toifasi, aytaylik og'ir jinoyatlar tadqiqi bilan cheklansak ham, juda ko'plab har xil holatlar aniqlanadi. Bunday jinoyatlarning ba'zilari individlar tomonidan, boshqalari tashkiliy guruh tomonidan sodir etiladi. Yakka jinoyatchining psixologik qiyofasi mustahkam uyushgan guruh a'zolarinikiday bo'lishi ehtimoldan yiroq. Bordi-yu psixologik tafovutlarni jinoyatning turli shakllari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan

taqdirda ham, unda bu bog'lanish qanday vujudga kelganini tushuntirish qiyin bo'ladi. Shunday bo'lishi ham mumkinki, birinchi o'rinda kriminal xulqqa moyillik emas, balki kriminal harakatlar odatiy bo'lib qolgan guruhda ishtirok qilganlik bo'lishi mumkin. [2.2. 87-c].

Jinoyatchilikning mohiyatini qoniqarli izohlash uchun sotsiologik nazariyalarga murojaat qilish mumkin. Chunki jinoyatlar jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan bog'liq. Sotsiologik yondashuvning eng muhim jihatlaridan biri – turli ijtimoiy konformlik va og'ishlarning o'zaro aloqadorligini ta'kidlashdir. Hozirgi jamiyatlarda ko'plab submadaniyatlar mavjud bo'lib, ulardan birida me'yoriy hisoblangan xulq, boshqasidan og'ish sifatida baholanishi mumkin.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ichki va tashqi sharoitlar deviant axloqning shakllanishiga imkon beradi. Ayni damda, qonunbuzarlikni yoritib, ko'pchilik mualliflar deviant axloqning paydo bo'lishida shaxsan ijtimoiy yo'nalganligining hal qiluvchi roli haqidagi xulosaga yon bosadilar. Gap qonunga qarshi axloqning bevosita sababi bo'lib chiquvchi maxsus motivatsiya haqida boradi. V.N.Kudryavtsev shaxsning antijamoatchilik orientatsiyasi to'g'risida ma'lumot beradi. Boshqa mualliflar o'xshash atamalardan foydalanadilar: shaxsning kriminogenli dezadaptatsiyasi, antijamoatchilik ko'rsatmalari, antiijtimoiy yo'nalganlik, qonunga qarshi motivatsiya va boshqalar. Ushbu atamalar shaxsning birmuncha turg'un va ustun bo'lgan sabablar – ichki ishonch- istagi, ehtiyoj, ko'rsatmalar, qadriyatlar, manfaatlar va e'tiqod tizimini belgilaydi.

Qonunga qarshi motivatsiya ifodalanishning turli manba, shakl va darajasiga ega bo'lishi mumkin. V.V.Luneev qonunga qarshi harakatlarning quyidagi yetakchi motivatsiyalarini ko'rib chiqadi: g'arazli-ta'magir, zo'ravon-egoistik anarxistik-individualistik yengiltabiat- mas'uliyatsizlik, qo'rqq-jur'atsizlik.

A.I.Dolgova o'smirlar misolida shaxs dezadaptatsiyasining zo'ravon va g'arazli tiplarini ajratadi. Zo'ravonlik tipida o'z-o'zini tasdiqlashga intilish, o'zini kuchli, haqiqatgo'y, har doim yordamga tayyor mehribon natura deb

tasavvur etish xohishi mavjud. Biroq haqiqatgo'ylik haqidagi tasavvur bunday shaxslarda noto'g'ri, ish mohiyati bo'yicha ularning axloqi jinoyatchining axloqi hisoblanadi. Ular uchun guruhli egoizm, norasmiy guruhlarga uzviy bog'langanlik shafqatsizlik kuchga ibodat qilish, o'z axloqining to'g'riligiga ishonch tipik xususiyat hisoblanadi. G'arazli tip uchun guruhli emas, individual egoizm harakterli. Uning vakillarida qadriyatli orientatsiya ancha nuqsonli, ular o'z harakatlarining qonunga qarshi harakterini to'la anglaydilar. Bunday o'smirlarga sirlilik axloqsizlik g'arazli ko'rsatmalarning mavjudligi, anchagina chuqur ijtimoiy qarovsizlik xosdir. Amaliyotning kattagina qismida ko'rsatilgan tiplarning kombinatsiyasi bilan ish olib borishga to'g'ri keladi. [2.20. 286-bet].

Qonunga qarshi motivatsiya aniq shaxs motivlaridan ustunlik qiluvchi mustahkam tizim sifatida bevosita uning huquqiy ongi bilan bog'liq. Huquqiy ong quyidagilarni ko'zda tutadi: 1) qonunlarni bilish va ularni tushunish; 2) qoidalarni shaxsga ahamiyatli kabi qabul qilish, ularning foydaliligi va haqqoniyligiga ishonish; 3) qonun va qoidalarga muvofiq tayyorlik malaka va odatlarni harakatlantirish. Shubhasiz, me'yoriy ijtimoiy rivojlanish madaniy (shu jumladan, huquqiy) me'yorlarni individual qadriyatlarga aylanish jarayonini ko'zda tutadi. Shaxsiy mazmun tizimi orqali singan huquqiy me'yorlar ixtiyoriy boshqaruv bilan uyg'unlashib, shaxsning qonunga bo'ysunish kabi sifatini ta'minlaydi.

Shunday qilib, qoidalarni bajarish yoki uni buzishning motivatsiyalari turli-tuman bo'lishi mumkin ekan. Qonunga qarshi harakatlarni qo'zg'atuvchi alohida sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- tezda lazzat olishga intilish;
- o'z-o'zini tasdiqlashga, qulaylikka yoki yuqori ijtimoiy mavqega intilish;
- oppozitsion axloq (buzishga ichki intilish, ta'qiqlar);
- axloqiy stereotiplar (kriminal muhitda bo'lish tajribasi);
- tajovuz va sadistlikka moyillik
- ijtimoiy stereotiplar va an'analarga ergashish;

- guruhga mansublikni his qilish va uni ma'qullashga ehtiyoj;
- zerikish, xatar va o'tkir hissiyotlarga intilish;
- frustratsiya, majburiy himoya zarurati;
- altruizm (boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar evaziga qonunbuzarlik).

Adbatta, deviant axloq bilan to'qnashib, biz dastavval uning ortida yashiringan sabablarni tadqiq etmog'imiz zarur.

Ongsiz motivatsiyani o'rganuvchi psixanalitik tadqiqotlarda deviantlik ichki nizo va oddiy himoya natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Antiijtimoiy axloq holatida deviantlikning quyidagi ongsiz sabablari ta'sir etishi mumkin:

- tezkor qoniqishni talab qiluvchi istak
- kuchsiz g'azab, umidsizlik –yengillashishni izlovchi tajovuzni boshdan kechirish;
- o'ch olishni talab qiluvchi xafalik
- haqiqatni tiklashga sabab bo'luvchi hasad;
- ishonchsizlik va masofani saqlashga intilish;
- ulug'vorlik va qudratlilik fantaziyasi.

Jinoyatchi shaxsining tuzilmasini aniqlashda, birinchi o'rinda uning ijtimoiy xususiyatlar majmuasidan iboratligini aytish joizdir. Jinoyatlar boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlar tufayli paydo bo'lgan. Shaxsga xos jihatlar kriminologiya uchun juda muhimdir, chunki u shaxsni jamiyat ijtimoiy guruhlar yoki boshqa jamoalarning a'zosi sifatida ko'rib chiqishga yordam beradi. shaxsning kriminologik tahliliga uning individual-psixologik xususiyatlari ham kiradi. O'z navbatida biologik xususiyatlar ham inson hatti-harakatlarida aks etadi. Jinoyatni sodir etishdagi asosiy sabablardan biri shaxs xarakterining ijtimoiy salbiy sifatlaridir. Ba'zi bir psixik jarayonlarning yaxshi rivojlanmaganligi, organizmning fiziologik holatidagi ayrim o'zgarishlar sabab bo'lishi mumkin. Jinoyatchi shaxsining tarkibida bir qator kichik tuzilmalar mavjud:

- ijtimoiy – demografik xususiyatlar: ijtimoiy kelib chiqishi va jamiyatdagi o'rnini, oilaviy va xizmat joyidagi mavqei, millati va kasbiy faoliyati, moliyaviy ahvoli;

- aqliy rivojlanish darajasi: madaniyati, ko'nikma va malakalari;

- axloqiy fazilatlar: shaxsning orzusi, qiziqishlari, ehtiyojlari, iqtidori, odatlari;

- psixik jarayonlar va shaxsning holati;

- Biofiziologik xususiyatlar: jinsi, yoshi, sog'ligi, jismoniy xususiyatlari.

Hamma tuzilmalar o'zaro bog'liq bo'lib, yaxlit jinoyatchi shaxsini belgilab beradi.

Jinoyatni sodir etishiga jinoyatchining jamiyatga qarshi fikrlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, odatlari sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun kriminologiyani shaxsning axloqiy fazilatlarini, psixik xususiyatlari ham qiziqtiradi. Jinoyatchi shaxsini hamma xususiyatlarini inobatga olish lozim, chunki ular shaxs xatti – harakatlariga ma'lum darajada ta'sir etadi. Shaxsning faoliyati uning munosabati bilan belgilanadi. Inson xulqini o'zgartirish juda qiyin. Buning uchun uning kasbiy darajasini ko'tarish, yangi kasblarni egallashiga yordam berish, moliyaviy ahvolini yaxshilash kerak somatik va psixik kasalliklarni davolash kabi choralarni ko'rish lozim bo'ladi.

Jinoyatchi shaxsini o'rganishning qiyinligi uning ijtimoiy va biologik muammolar bilan bog'liqligi, amaliy va huquqiy ahamiyatga egaligidir. Uning yechimi jinoyatchilikni sodir etish sabablari va unga qarshi kurash olib borish yo'llarini topishga yordam beradi.

Biologik omillarning ahamiyati ko'plab kriminologik nazariyalarning bo'linishiga olib keladi. Kriminalistlar jinoyatchilik huquqiy jinoyat kabi ijtimoiy tabiatga ega ekanligini e'tirof etish bilan bir qatorda biologik omillar rolini ham rad etmaydi, lekin ular shaxsning jinoiy harakati sabablarini emas, balki sharoitini belgilab beradi.

Ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, jinoyatni psixik anomaliyaga ega bo'lgan odamlar sodir etishar ekan. Psixologik va ba'zi bir kriminologik qarashlar

shaxsning psixik faoliyatining pasayishi unda asabiylashish, tajovuzkorlik razillik kabi sifatlarning rivojlanishiga olib keladi, bundan tashqari irodasining kuchsizlanishi, o'zini boshqara olmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holatlar insonni nogironlikka olib keladi, mehnat qilishiga to'sqinlik qiladi, noqonuniy harakatlarni sodir etishiga sabab bo'ladi.

Biroq psixikadagi har qanday o'zgarish ham jinoyatni sodir etishiga sabab bo'la olmaydi.

Birinchidan; jinoyatchilarning ko'pchiligi bunday tashhisga ega emaslar.

Ikkinchidan; odamdagi psixik o'zgarishlar jinoyatni sodir etilishiga sabab bo'lmaydi.

Uchinchidan; shaxsning psixikasidagi o'zgarishlar insonni nima uchun jinoyatni sodir etganini aniqlab bermaydi. Psixopatiyalar ham jinoyatlarning sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Lekin psixopatlar (chegara kasallik) yaxshi ishlay olishi va lavozimni egallashi mumkinligi hammaga ma'lum.

Kriminalistlar jinoyatchi shaxsida biologik omil mohiyatini o'rganish, genotiplarning o'xshashligi kriminal xususiyatlarning bir-biriga mos tushushiga olib kelishini o'rganishni maqsad qilib qo'yishgan. Egizaklar ikki qiz yoki ikki o'g'il bola bo'lib tug'iladi. Ularning xususiyatlari genotip va atrof-muhit orqali rivojlanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, egizaklarning ikkinchisi ko'proq jinoyat sodir etarkan. Lekin bu ham jinoyat sodir etishga biologik omillar ta'sir etishini isbotlamaydi. Egizaklarning jinoyatkorona hatti - harakati ularning bir xil muhitdagi olgan tarbiyasi va psixofiziologik xususiyatlaridandir. Xromosomadagi o'zgarishlarga ega bo'lgan insonlar kriminalistlar diqqatini o'ziga tortadi. Ushbu o'zgarishlar tug'ilgan chaqaloqlarning 0,4 % da uchraydi. Erkaklarda 47 ta xromosoma bo'lib, «X» yoki «Y» shaklda bo'ladi. 60- yillarda aynan ushbu shakldagi xromosomal kishilar jinoyatkorona harakat qilganliklari aniqlangan. Xromosomalardagi anomaliyalar psixik kasalliklar bilan o'zviy bog'liqligi isbotlangan, jinoyatchilarning ko'pi shu kasalliklarga ega ekanligi ma'lum bo'lgan. Bunda ijtimoiy va biologik omillar o'zaro ta'sirda bo'ladi. Shaxsning kriminologik xususiyatlarini o'rganish jinoyatchilarning boshqa

odamlardan farqi borligini, jinoyatni sodir etishga sabab bo'ladigan motivlarni topishga yordam beradi. Bunday tahlilni mamlakat, respublika, viloyat, shahar va tumanlar miqyosida o'tkazish kerak. Uning xulosalari katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Kriminologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar - jinoyatchilarning orasida ayollardan erkaklarning ko'pligi, jinoyatchilarning yoshi turli xil ekanligini ma'lum qiladi. O'spirinlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar tajovuzkorona tabiatga ega. [2.2. 88-92 bet].

Jinoiy harakatlar insonlarning hayotiy maqsadlari, turmush tarzi, qiziqishlariga bog'liq bo'ladi. 70-75 % jinoyatlar 18-40 yoshdagi odamlar tomonidan sodir etiladi. 24 yoshgacha va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar; o'g'irlik, bezorilik, talonchilik, zo'rlash va avtotransport o'g'irilash shaklida bo'ladi.

Oiladagi muhit va ayniqsa tarbiya deviant xulq rivojlanishiga ta'sir qiladi. Masalan: to'liqsiz oilalar, ota-onalarning alohida yashashi, moliyaviy ahvolining beqarorligi, oiladagi munosabatlarning yomonligi, bolalarning qarovsizligi, bolalar uyida tarbiyalanishi kabi hollatlar misol bo'ladi.

Hozirgi kunda nikoh qurmasdan yashaydiganlar orasidagi jinoyatchilik nikoh qurib yashayotganlarga nisbatan ikki barobar yuqoridir. Kishining jinoyat sodir etmasdan oldin qanday mehnat faoliyati bilan shug'ullanganiga e'tibor berish kerak (o'qish, ish joyi, anchadan buyon ishlaydimi, ishlamaydimi va boshqalar).

Jinoyatni juda ko'p turlarga ajratish mumkin. Jumladan:

Qurbonsiz jinoyatlar – boshqa individlarga bevosita zarar yetkazmaydigan, lekin noqonuniy deb hisoblangan faoliyat turlari (giyohvand moddalarni iste'mol qilish, qimorbozlik, fohishabozlik)ga aytiladi. Aslida qimorboz yoki giyohvandlar uyushgan jinoyatchilikning qurbonlariga aylanadilar.

Hukumat jinoyatlari – qabul qilingan qonunlarni inkor etuvchi hokimiyat vakillari, poraxo'rlik turli xil jinoyatlarni yashirish, jinoiy guruhlariga aralashib qolgan politsiya ofitserlarini ham shu tipga kiritish mumkin.

Uyushgan jinoyatlar – oddiy biznesga o'xshagan faoliyat bilan bog'liq, biroq uning mazmuni qonunga xilof bo'ladi. U o'z ichiga qimor o'ynash, fohishabozlik yirik miqyosidagi o'g'irliklar va reket kabilarni qamrab oladi. Uyushgan jinoyatchilik rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQShda avj olgan.

Og'ir jinoyatlar sirasiga zo'rlashlar, qotilliklar va shunga o'xshashlarni kiritish mumkin. Bu ham rivojlangan davlatlarda ko'p uchraydi.

Jinoyatni sodir etilishidagi asosiy sabablardan biri sifatida iqtisodiy yetishmovchiliklarni ko'rsatadilar. Zero, juda ko'p mamlakatlarda ya'ni iqtisodiy jihatdan yaxshi rivojlangan davlatlarda ham jinoyatchilik avj olgan.

Ehtiyojlar deviant xulq-atvor motivlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Deviant xulq-atvor shakllanishining bir necha bosqichlarini ko'rsatish mumkin:

1. Ehtiyojlarning dolzarbligi- ya'ni qaysidir ehtiyojni qondirish nihoyatda zarur bo'lib qoladi.
2. Motivlarning vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. Maqsad qo'yilishi.
4. Maqsadga erishish yo'llarini tanlash.
5. Natijani oldindan tasavvur etish-prognoz.
6. Qaror qabul qilish va ijro etish.

Qonunlarga bo'ysunuvchi fuqarolar jinoyatni kam sodir etishadi. Lekin jinoyatni sodir etgan odamlar qonunni yaxshi bilmaydi deb aytib bo'lmaydi. Aksariyat qonunga bo'ysunuvchi fuqarolarga nisbatan ular qonunni yaxshi bilishadi. Lekin ular qonunni hurmat qilishmaydi, unga bo'ysunishni xoxlashmaydi. [2.13. 91-93.bet]

1.2. O'smirlik deviant xulq shakllanishi uchun senzitiv davr sifatida

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomuvofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;
- 2) ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilgani;
- 3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada xabardorligi;
- 4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;
- 5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy va vatanparvarlik va millatlararo totuvlik tarbiyasiga alohida yondashish zarurligi;
- 6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;
- 7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. SHuning uchun shaxslararo munosabatda, talaba bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlar muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. Bu o'zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug'iladi. Bular avvalo ta'lim jarayonida ro'y beradi: yangi axborot, ma'lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o'smirni qoniqtirmay qo'yadi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi. Kattalarning yo'l-yo'riqlarga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli ob'ektiv va sub'ektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, kuyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmati haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar. Mazkur illatlarning oldini olish chora va tadbirlari tizimini ishlab chiqa olmaydilar. Bu masalaga to'g'ri yondashish ayrim ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan va o'smirlik davri inqirozi haqida mulohaza yuritishdan ko'ra, kattalar bilan o'smirlar muomalasining inqirozi haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi, deb xulosa chiqarilgan.[2.17. 153-154.bet]

O'smirning psixik o'sishini xarakatga keltiruvchi kuch uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari

o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o'rtasida sodir bo'ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni psixologik kamolotni ta'minlash, faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o'smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarni tarkib toptirish bilan asta-sekin yo'qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko'tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o'smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, ob'ektlar o'rtasidagi ichki munosabatlarni o'rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, o'zini o'zi nazorat qilish, baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.[2.15. 283.bet]

Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. SHu sababli bizda o'g'il va qizlarni 10—11 dan 14—15 yoshigacha o'smirlik yoshida deb hisoblanadi.

Venalik psixolog Z. Freyd va uning shogirdlari o'smirlik davrini baholashda insonga azaldan berilgan qandaydir ilk mayl nishonasi sifatida vujudga keladigan o'z mavqeini belgilashga ongsiz intilishni eng muhim asos deb hisoblaydilar. Bu intilish go'yoki xudbinlik, boshqa kishilarni mensimaslik, paydo bo'lishga, atrof-muhit bilan kelisha olmaslikka, hatto nizolarga olib kelar, ongsizlik ehtiyojlari va mayllari shaxsning faolligini belgilar emish. Rus psixologlari Z. Freyd nazariyasini mutlaqo asossizligini ta'kidlab, o'smirda imkoniyat bilan talabchanlik o'rtasidagi kelishmovchilik, o'zini ko'rsatishga moyillik va o'z ichki dunyosiga qiziqishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanishini asoslab berdilar. [2.10.103.bet]

Ayrim psixologlar biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi sub`ektiv ichki kechinmalari o'g'il va qizlarni tanholik psixologiyasiga tortar emish. O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi deb tushuntirilmoqda. O'smirlikning psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

Amerikalik psixolog R. Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani olg'a suradi. Uning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy axloqiy kategoriya mavjud bo'lib, ular;

1. emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutulish)
2. mustaqillikka erishish
3. hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir.

Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R. Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham xisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi.

Psixologlarning fikricha, o'smirlik davrining muayyan hech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

SHu bilan birga, o'smirning jismoniy o'sishi xususiyatlari, jinsiy yetilishining iqlim va milliy-etnografik omillari ham bor.

O'smirlik insonning balog'atga etish davri bo'lib, o'ziga xos xususiyati bilan kamolotning boshqa pog'onalaridan keskin farqlanadi. O'smirda ro'y beradigan

biologik o'zgarishlar natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. Balog'at davriga 11 (12)—15 yoshli qizlar va o'g'il bolalar kiradilar. Kamolotning mazkur pallasida jismoniy o'sish va jinsiy etilish amalga oshadi.

Bolaning bo'yi 11—12 yoshida 6—7 sm, hatto 10 sm gacha o'sishi mumkin. Biroq bu bosqichda qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadilar. O'smir 13—14 yoshga to'lganda har ikkala , jins o'rtasida bo'yni o'sishi qariyb baravarlashadi. O'n besh yoshga qadam qo'yganda esa o'g'il bolalar qizlarni ortda qoldirib ketadilar. SHundan keyin to umrning oxirigacha o'sishda o'g'il bolalar ustunlik qiladilar.

O'smirlik davrida bo'y bilan tana nomutanosib ravishda o'sadi, natijada bolalar oriq, nimjon va uzun bo'yli bo'lib ko'rinadilar.

O'smirlarda yurakning hajmi va tiriklik sig'imi har yili 25 foiz kattalashib boradi. Bo'yni o'sishi va tana og'irligining ortishi bilan qon hamda kislorodga ehtiyoj ham ortadi, bu ehtiyoj yurak xajmining kengayishi va funksional faoliyati ko'rsatkichlarining boyishi evaziga ta'minlanadi. Mazkur davrda tananing umumiy hajmidan 7—8 foizini qon tashkil qiladi, qon bosimi birmuncha oshadi, simob ustunining 110—115 mm darajasida bo'ladi. Yurak qisqarishining chastotasi bir qadar sekinlashadi, masalan, 11 yoshda 1 daqiqada 85—90 marta urgan bo'lsa, 14—15 yoshlarda 70 martagacha pasayadi. [2.36.42.bet]

O'smirlik davri organizmning jo'shqin o'sishi va rivojlanishi davridir. Bu davrda tananing intensiv o'sishi (mana shu ikki yil mobaynida qiz bolalar maksimum o'sish 13 yoshga, o'g'il bolalarda esa — taxminan 15 yoshga to'g'ri keladi) yuzaga keladi. Bu davrda bolaning muskul apparati takomillashadi va skeletining suyaklanish protsessi davom etadi.

O'smir bolaning qanday o'xshovsiz, beso'naqay ko'rinishini biz yaxshi bilamiz. Buni notekis jismoniy taraqqiyot bilan tushuntirish mumkin: skelet va qo'loyoqlari xususan intensiv ravishda bo'yiga o'sadi, ko'krak qafasi esa taraqqiyotdan orqada qoladi. Bu esa ayrim psixologik namoyonlikni yuzaga

keltiradi: o'smir o'zining beso'naqayligini anglaydi, undan uyaladi va o'zining o'xshovsizligini niqoblashga intiladi. Ba'zan sun'iy, serhasham qiyofaga kirib, soxta va yasama qo'pollik bilan o'zining tashqi qiyofasidan kishilarning diqqatini chalg'itmoqchi bo'ladi. Uning qaddi-qomati, vajohati yoki yurishlariga nisbatan xatto salgina kinoya va xazil, mutoyiba ko'pincha jo'shqin reaksiyani yuzaga keltiradi; kishilarning ko'z o'ngida kulgili va qovushmagan bir odamga aylanib qolganligidan o'smir ranjiydi.

Bu davrda yurak-qon tomirlari sistemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuzatiladi. Bu paytda yurak hajmi jihatidan ancha kattalashadi, anchagina baquvvatlashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi, qon tomirlarining diametri bo'lsa taraqqiyotdan orqada qoladi. Bu ko'pincha qon aylanishining vaqtincha buzilishiga, qon bosimining yoshga bog'liq holda ko'tarilishiga, yurak faoliyatining zo'r berishiga olib keladi. Natijada ayrim o'smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og'rishi, vaqtincha yuzaga keladigan zaiflik, nisbatan tez toliqish va shuning kabi holatlar vujudga keladi.

O'smirlik davrida nafas olish organlari jadal rivojlanadi. O'pkaning tiriklik sig'imi quyidagicha bo'ladi:

O'g'il bolalarda — 11 yoshda 1900—2000 ml; 15 yoshda 2600—2700 mm.

Qizlarda — 11 yoshda 1800—1900G ml. 15 yoshda 2500—2600 ml. SHuning uchun nafas olish har daqiqada 2 marta kamayadi. O'g'il bolalar qorin bilan, qizlar esa ko'krak bilan nafas ola boshlaydilar. Ko'krak qafasi, nafas olish muskullari tez o'sa boradi va jinsiy yetilishni kuchaytiradi.

Yuqorida qayd qilingan yurak-qon tomirlari sistemi taraqqiyotining xususiyatlari va ichki sekretiya bezlari faoliyatining intensiv ishlay boshlashi (jumladan, qalqonsimon bezlar faoliyatining) odatda o'smirlar nerv sistemi faoliyatini ayrim hollarda tez o'tib ketadigan buzilishlarga olib keladi. O'smirlarda ortiqcha qo'zg'aluvchanlik, serzardalik, tutaqib ketish va effekt tipidagi jo'shqin hamda keskin reaksiyalarda namoyon bo'ladigan asabiylikni kuzatish mumkin. O'smirning nerv sistemi hali kuchli va uzoq vaqt davom etadigan bir xildagi qo'zg'ovchilarga hamma vaqt ham bardosh berishga tayyor

emas. Bunday qo'zg'ovchilarning ta'sirida o'smirlarning nerv sistemasi ko'pincha tormozlanish holatiga yoki, aksincha, kuchli qo'zg'olish holatiga o'tib ketadi. Taassurotlarning nihoyatda ko'pligi, kuchli asabiy hayajonlanish, hayajonga soladigan hodisani uzoq vaqt kutib qolish va shu kabilar o'smirlarga ana shunday ta'sir qilishi mumkin. Bir xil o'smirlar buning ta'siri ostida tormozlanib qoladilar, ular shalpayib birovga qo'shilmaydigan, uyqusiragan va anqov bo'lib qoladilar; boshqa bir o'smirlar — tajang, asabiy bo'lib qoladilar, ular intizomni buza boshlaydilar, ba'zan o'zlariga mutlaqo munosib bo'lmagan (ba'zan esa umuman bema'ni) xatti-harakatlarni qiladilar. Bu esa o'qituvchini, tarbiyachini qiyin ahvolga tushirib qo'yadi.

11—12 yoshdagi o'smirning ichki sekretiya bezlari qayta quriladi. Gipofizning old qismi ishlab chiqaradigan gormonlar gavdaning o'sishini ta'minlaydi. Gipofizning o'rta qismi kuchayishi sababli pigmentlar almashinishi o'zgaradi, natijada soch qorayishi, yuzlarning oqarishi namoyon bo'ladi. Gipofiz bilan bir qatorda qalqonsimon bezning funksiyasi ham kuchayadi. Qalqonsimon bez ishlab chiqaradigan tiroksin gormoni organizmda modda almashinuvi va energiya sarfini keskin orttiradi. Markaziy nerv sistemasida qo'zg'aluvchanlik o'zgaradi, natijada yaqqol his-tuyg'ular tug'ila boshlaydi. Qalqonsimon bez faoliyatining kuchayishi qo'zg'aluvchanlik, asabiylashish va toliqishni keltirib chiqaradi. Bosh miya qobig'ida tormozlanish jarayonining susayishi shiddatli emotsional kechinmalarni vujudga keltiradi, xulq-atvorda parokandalik, g'ayritabiiylik paydo bo'ladi. Qalqonsimon bez funksiyasining o'zgarishi va modda almashinuvining buzilishi sababli o'smirda semirish ro'y berishi mumkin.

Mazkur yosh davrida jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. Balog'atga yetishning birlamchi va ikkilamchi alomatlari o'sa boshlaydi: o'g'il bolalarda ovoz o'zgaradi, yo'g'onlashadi, mo'ylov va soqol paydo bo'ladi, qizlarda esa ko'krak bezlari rivojlanadi va hokazolar. Natijada boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xohish, nozik tuyg'u, sog'inch, iztirob kabi kechinmalar paydo bo'ladi. O'smirlik yoshidagi jismoniy taraqqiyotning eng muhim fakti jinsiy

yetilish, ya'ni jinsiy bezlarning ishlay boshlashidir. Ko'pchilik o'g'il bolalar hozirgi vaqtda jinsiy jihatdan 15—16 yoshda, qiz bolalar esa 13—14 yoshda yetilyapdilar. Mutlaqo tushunarliki, agar 15—16 yoshga kelib jinsiy yetilish davri tugallansa, organizm bu paytda o'ziga o'xshash mavjudodni yuzaga keltirishga tayyor bo'ladi. Lekin bu yoshda, ravshanki, jismoniy va xususan ruhiy, g'oyaviy, ijtimoiy hamda fuqarolik jihatdan yetilganligi haqida gap bo'lishi mumkin emas. SHunday qilib, olimlarning aytishlariga ko'ra, o'smirlik yoshida jinsiy yetilish bilan, tegishli instinktlar, seksual (shahvoniy) bo'yoqlarga bo'yalgan hissiyotlar va intilishlarning namoyon bo'lishi hamda psixik va ijtimoiy yetilish o'rtasida nomoslik yuzaga keladi. Bu yoshning qiyinligi va xavfliligi ana shundadir: o'smir ko'pincha o'zi uchun yangi bo'lgan instinktlarga va intilishlarga baho bera olmaydi, ularni ushlab, to'g'ri yo'lga sola olmaydi. Ko'pincha u o'z hissiyotlarini va xatti-harakatlarini nazorat qila olmaydi va o'zining qarama-qarshi jinslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olmaydi. Agar biz o'smirlarning yangi, hukmron, noma'lum hissiyotlar va sezgilar oldida ojiz bo'lib qolishlarini istamasak, agar ularning nihoyatda gumonli (shubhali) va biz xohlamaydigan manbalardan informatsiyalar hamda tegishli ko'rsatmalar olishlarini va ana shu asosda ular shaxsining normal bo'lmagan holda bema'ni buzilishini istamasak, o'qituvchilar va tarbiyachilar o'smirlarga ularni hayajonlantirayotgan hamma masalalarni tushunib olishlariga oqilona hamda ustalik bilan yordam berishlari kerak.

O'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta'sir qilishdan tashqari o'smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta'sir qiladi. O'smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va qandaydir ma'noda ular uchun kutulmagan jinsiy mayillik va tegishli fikrlar, hislar, kechinmalar, qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma'lum mazmundagi kitoblarga, kinofilmlarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi mutlaqo zarur tabiiy va normal holdir. Bu

o'smirlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda bu yosh uchun hisobga olinishi lozim bo'lgan muhim psixologik xususiyatlardan biridir. Vaholanki, bularning hammasi tabiiy va qonuniy ekan, qo'rqish, tashvishlanish va xavotirlanishning hojati yo'q. Biroq bunga loqaydlik bilan befarq munosabatda bo'lish ham mumkin emas. SHunday faktlar keng miqyosda ma'lumki, ayrim sharoitlarda jinsiy mayl (yaramas ishlarga taqlid qilish, yoshga to'g'ri kelmaydigan kitoblar va kinokartinalar bilan tanishish va shuning kabilar) ko'pincha buzqlik va pastkashlik bilan bog'liq bo'lgan yaramas qiliqlar va kechinmalar shakliga o'tib ketadi.

O'smirlarni imkoniyat boricha yaramas namunalardan saqlash zarur. Ularga to'g'ri kelmaydigan adabiyotlarni o'qishga, ular uchun zararli bo'lgan kinofilmlarni va televizion ko'rsatuvlarni ko'rishlariga yo'l qo'yish kerak emas. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, bu ish shunchaki oson ish emas. Masalan, televizor orqali o'smir uchun ko'rish mumkin bo'lmagan qandaydir ko'rsatuv berilyapti, o'smirni televizordan chalg'itish (ko'rishga yo'l qo'ymaslik) naqadar qiyin ekanligini ota-onalar biladilar. Umuman televizorni ko'rishni to'g'ridan-to'g'ri man qilish teskari natijaga olib kelishi mumkin. O'smir qanday bo'lmasin (ularning birining oqilona aytishicha) «temir parda» orqasida qarashga urinib ko'radi. Har holda, o'smirlarda ana shunday qiziqishlarni umuman yuzaga keltirmaslikka erishish qiyin bo'lsa kerak. Bu qandaydir ma'noda tabiiy va zaruriy hodisadir. Biroq shunga erishish lozimki, bu qiziqish zararli xarakterga ega bo'lmasin, qandaydir keraksiz psixologik xususiyatlar bilan bog'liq bo'lmasligi kerak. Bu erda o'smir hayotining to'g'ri tartibi, ya'ni qat'iy mehnat, uyqu, dam olish va ovqatlanish rejimi, jismoniy tarbiya va sport bilan doim shug'ullanish yordam beradi. O'smirlarning diqqatlarini ko'chirish, ya'ni boshqa tomonga — ular uchun qiziqarli va jozibali bo'lgan faoliyatlar, foydali va qiziqarli filmlarga, kitoblarga tomon yo'naltirish muhimdir. [2.17. 156-158.bet]

O'smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo'yadi, bu esa o'z navbatida ko'proq

huquq va erk berilishini, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va o'z xulq-atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni taqozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik o'smirlik davrining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi. [2.21.304 c]

1.3. O'smirlik davrida deviant xulqning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Deviant xulq-atvor — jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. [2.7. 276 c]

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan sanaladi:

a) jinoyatchilik. Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud:

1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish.

2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish — spirtli ichimliklarni mumtazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p mikkorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi.

3) Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik(muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) Giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

g) Foxishabozlik. Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa, ikki turga bo'lib o'rganiladi:

1. Konkubinat — nikohsiz birga yashash.

2. Fohishabozlik — pul uchun o‘z tanasini sotish.

G‘arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharqda ikkala holatga ham me‘yordan og‘ish sifatida qaraladi.

d) Byurokratiya. «Byurokratiya» termini aslida «hokimiyanga ega bo‘lgan xodim» degan ma‘noni anglatadi. Biroq davrlar o‘tishi bilan «byurokratiya» mahalliychilik, qog‘ozbozlik, to‘rachilik, mansabni suiste‘mol qilish kabi salbiy ma‘nolarda qo‘llanila boshlaydi. Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda «byurokratiya» termini asil ma‘nosini yo‘qotib, boshqaruvdagi o‘ziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi. [2.40. 40-bet]

Yuqoridagilardan tashqari mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham ijtimoiy me‘yordan chiqishning diqqattalab ko‘rinishlaridan hisoblanadi. [2.36.75-bet]

Ijtimoiy norma deb jamiyatda qabul qilingan qoidalar va tamoyillar yig‘indisiga aytiladi. Jamiyatning har bir qatlami va sohasi uchun alohida normalar ishlab chiqilgan. Bu normalar uzoq yillar davomida sharoit taqozosi bilan takomillashib qonun-qoida darajasiga ko‘tarilib borgan.

Ijtimoiy me‘yor va qadriyatlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, qoidalarni buzish tiplari ham shunchalik ko‘p bo‘ladi. Bundan tashqari, turli madaniyatlar, shuningdek, submadaniyatlarning me‘yorlari bitta jamiyat ichida ham ancha farq qiladi. SHuning uchun bir jamiyat uchun oddiy hol hisoblangan narsa boshqasida me‘yordan og‘ish sifatida baholanishi mumkin. Masalan, marixuana chekish – Britaniya madaniyatida «og‘ish» hisoblanadi, alkagolli ichimlik ichish esa «og‘ish» hisoblanmaydi.

Deviant xulq-atvorning vujudga kelishi haqida ikki xil qarashlar mavjud bo‘lib, birinchisi tabiiy-biologik, ikkinchisi ijtimoiy-reduktsion fikrlardir. Tabiiy biologik qarashlarga ko‘ra, deviant xulq-atvorning kelib chiqishida biologik omillarning roli alohida o‘rin tutadi. Genetik tuzilishning o‘ziga xosligi, bioximik boshqarishning buzilishi, asab tizimi mexanizmlari ish faoliyatining buzilishi va boshqalar shunday omillardandir. Ijtimoiy-reduktsion nazariyalar har qanday ichki, shu jumladan psixologik (shaxs dispozitsiyalari) rolini inkor

etgani holda og'ishgan xulq-atvorni ijtimoiy-iqtisodiy holatlar bilan tushuntirishga harakat qiladi. Venger psixologi F.Patakining fikricha, deviant xulq-atvor tizimli yoki ko'plab sababiy bog'liqlikka ega bo'lib, uning vujudga kelishi bir emas, balki bir qancha ya'ni tarixiy, makrosotsiologik, ijtimoiy-psixologik va individual-shaxsiy omillar roliga bog'liq.

Deviant xulq-atvorning shakllanishiga ham tashqi (jumladan ijtimoiy-iqtisodiy), ham ichki (psixologik) omillar ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omillarga ishsizlik, hayot tarzining pastligi, jamiyatda u yoki bu qatlamning yashash darajasi va boshqalar kiradi. Ikkinchi guruh omillarga L.M. Zyubinning fikricha quydagi omillar kiradi:

aqliy rivojlanishdagi yetishmovchilik (lekin patologiya emas), bu holat o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tahlil qilish, oqibatini oldindan ko'rishga xalaqit beradi;

tafakkur mustaqilligining yetishmasligi, yuqori darajada konformlilik, ta'sirlanuvchanlik;

quyi darajadagi aqliy faollik, ma'naviy ehtiyojlarning qashshoqligi va beqarorligi.

Ushbu muammo yuzasidan yana ikki xil psixologik (ichki) sabablarni keltirish mumkin:

qanoatlantirilmagan prosotsial (ijtimoiy) ehtiyojlar bo'lib, ular ta'sirida shaxsda ichki ziddiyat paydo bo'ladi va asotsial (jamiyat uchun zid bo'lgan) ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi;

asotsial (jamiyat uchun zid bo'lgan) shaxs dispozitsiyalari (motivatorlari), ular o'z navbatida asotsial yo'llar va vositalar bilan o'z ehtiyojlarini qondirishga undaydi.

O'zligini anglash bilan bog'liq ehtiyojlarning qondirilmasligi bolada tajovuzkorlikni vujudga keltiradi. O'zi yo'qotgan narsasining o'rniga boshqanikini o'zlashtirib olishga intiladi. Mustaqillikka, erkinlikka bo'lgan ehtiyojning qondirilmasligi hammaga nisbatan tajovuzkorlik, protest, namoyishkorona bo'ysunmaslik, uydan qochib ketish kabi holatlarni vujudga

keltiradi. Oilada va tengdoshlari davrasida o'zining haqiqiy o'rnini topa olmaslik o'z-o'zini tasdiqlashning negativ (salbiy) shakllaridan foydalanishga olib kelishi mumkin.

Noto'g'ri tarbiya bolada ijtimoiy hayotdagi norma va qoidalarga nisbatan mensimaslik yoki salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Sekin-asta asotsial og'ishgan xulq, katta jinoyatchilik motivlari shakllana boshlaydi.

F. Pataki madaniy va tabiiy (natural) dispozitsiyalarni ajratib ko'rsatgan. Tabiiy dispozitsiyalar xulq-atvorni tashkil etishdagi psixofiziologik buzilishlar bilan bog'liq psixopatik hodisalar hisoblanadi. Ijtimoiy-madaniy dispozitsiyalar turli mojarolarni avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy, hududiy, etnik an'analar asosida hal qilishdir. Agar mazkur dispozitsiyalar shaxs tomonidan o'zlashtiriladigan bo'lsa ayrim deviant xulq-atvor urinishlari paydo bo'lishi ham mumkin. Ba'zan jamiyatning ayrim qatlamlariga taqlid qilish, kriminal holatlarni vujudga keltiradi.

F.Patakining fikricha, dispozitsiyalar deviant xulq-atvorning bevosita sababi emas, balki uning vujudga kelishi uchun sharoit yaratuvchi omildir. Agar ijtimoiylashuvning ilk bosqichlarida noo'rin (keraksiz) an'analar va intilishlar shunga muvofiq ijtimoiy-madaniy namunalar bilan mos kelsa, u holda deviant xulq-atvor shakllanishining ehtimolligi ortadi.

Ijtimoiy xulq-atvor normalari turli tarixiy davrlarda, turli xalq va elatlarda mos kelmasligi mumkin. Ba'zi jamiyatlarda odamlarni qurbon qilish, qonga-qon orqali qasos olish, narkotik moddalar iste'mol qilish majburiy va ijtimoiy norma hisoblangan. Masalan, (tsigan) lo'lilarda o'g'irlik o'zining rasmiylashtirilmagan mulkiga ega bo'lish, alkogolizm millat faxri, o'z joniga qasd qilish qahramonlik deb qaralgan.

O'smirlik davrida og'ishgan xulqning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

- 1.O'smirlik davrida vujudga keladigan morfologik va fiziologik o'zgarishlar.
- 2.Dastlabki asab va ruhiy kasalliklarga xos belgilarning namoyon bo'lishi.
- 3.Ijtimoiy sohaning ortib borishi.

4.shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar.

5.Bilish faoliyatidagi kamchiliklar.

6.Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalar kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud.

Shaxsning biologik o'sishidagi nuqsonlar, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentidagi qusurlar, aql-idrokning zaif rivojlanganligi, irodaning bo'shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o'smirning intilishi bilan mavjud imkoniyat o'rtasidagi nomutanosiblik va hakovolar hatti harakatni izdan chiqaradi.

Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hislarning yetishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot, ishyoqmaslik, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi.

Shaxsning bilish, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:, aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana olmasligi, eng muhimi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi buzilishlar, maktab faoliyatidagi, o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi.

Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, oiladagi pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi, oilaviy nizolar, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balog'atga yetmagan tengqurlarining ta'siri, madaniy- ma'rifiy, ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin o'smirlar ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. O'smirlarni tipologik xususiyatlariga binoan bir nechta og'ishgan xulq guruhlariga ajratishimiz mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsiz yoki subutsiz deyiladi. Ular o'z holatlarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. Ko'pincha o'zlarini gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tanqid qiladilar. Lekin yutuqlarni e'tirof qilishni

xoxlamaydilar. shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga ma'qullatishni va o'z talablarini o'zgalar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Bunday bolalar betgachopar, o'jar tabiatli, rahm- shavqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar. Mustaqil fikriga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atrofiga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadilar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror xis- tuyg'uga ega emasligi tufayli «orqa qanotda» turib qoidani buzadilar. Ularning hatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'liq. Ular tashviqotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganini anglab etadilar, biroq, jamoalari fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan keyin bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya hatti-harakatdan qochmaydilar, har doim odamlarga yahshilik qilishni orzu qiladilar, biroq shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xoxishlarini ta'qiqlangan usullar yordami bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus -nadomat chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar. Ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xoxishlardan ustun turadi. Ahloqqa xilof hatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi, xolos.

Injiq tabiatli o'smirlar to'rtinchi guruhga mansub bo'lib, ular sinf jamoasida o'z o'rnini topa olmaganidan qayg'uradilar. Ular ginachi, arazchi bo'ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotganday kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatni vujudga kelishiga asosiy sabab shaxsiy imkoniyatlardan ko'ra intilish, mayil va obro' ketidan quvishning ustunligidir. Ular jamoa a'zolarining hurmatiga sazovor bo'lishni xoxlaydilar. Ko'pincha

tundlik bilan ish tutadilar, biror narsaga xayrixoxliklari yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatiga ishonchsizlik, ularga xos xususiyatdir. Ular qonun va qoidalari buzishga astoydil harakat qilmasalarda, ta'lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni hatta-harakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim.

Buning uchun ularga yoshi, kuchi qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib topshiriqlar berish kerak.

Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, tirik burchakni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarini kamaytirish mumkin. Ularni faoliyatga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qotib boriladi. O'smirlik davrida paydo bo'ladigan deviant xulq turlaridan eng ko'p uchraydigani bu addiktiv xulq atvordir. O'smirlarda addiktiv xulq-atvorni vujudga keltiruvchi sabablar - qiziqish, havas, taqlid, o'rtoqlarini davrasidagi o'z o'rnini egallash va boshqalar bo'lishi mumkin.

O'smirlar orasida tamaki mahsulotlarini chekish va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish addiktsiyasi juda ko'p uchraydi. Chunki tengdoshlari o'rtasida obro' qozonishga intilish, qiziqish va boshqalar tomonidan tan olinishni xoxlash o'smir tomonidan turli qonunga zid harakatlarni bajarishga undaydi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyasi rivojlanib ketganligi sababli-kompyuter o'yinlari addiktsiyasi ham ko'payib bormoqda.

O'smirlik davridagi og'ishgan xulq-atvorga boshqa kishilarga nisbatan tajovuzkorlik, o'g'irlik, jinoyatchilik, daydilik va boshqalarni ham kiritish mumkin. Turli psixodiagnostik metodlardan foydalanib o'smirlardagi og'ishgan xulq-atvor shakllarini aniqlash va korreksiya qilish mumkin. [2.40. 1-6-bet]

I-Bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishimizning birinchi bobida o'smirlik davrida deviant xulq-atvorni namoyon bo'lishining psixologik-pedagogik asoslariga doir fikrlar keltirilgan. Unga ko'ra, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- shaxsda deviant xulq-atvorning yuzaga kelishi ularning hissiy-emotsional sohasi, aqliy taraqqiyoti ijtimoiy-psixologik, pedagogik omillar roli bilan belgilanadi;

- deviant xulq-atvorning namoyon bo'lishi shaxsning ijtimoiy muhit ta'sirlari negizida yaqqol ko'rinadi;

- shaxsning deviant xulq-atvori nafaqat ijtimoiy omil bilan, balki biologik jihatdan ham shartlanganlik xususiyatiga ega;

- o'smirlik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishi ularning yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirganligi bilan belgilanadi;

- qonunga qarshi harakatlarni qo'zg'atuvchi alohida sabablar tezda lazzat olishga intilish; o'z-o'zini tasdiqlashga, qulaylikka yoki yuqori ijtimoiy mavqega intilish; oppozitsion axloq (buzishga ichki intilish, ta'qiqlar); axloqiy stereotiplar (kriminal muhitda bo'lish tajribasi); tajovuz va sadistlikka moyillik; ijtimoiy stereotiplar va an'analarga ergashish; guruhga mansublikni his qilish va uni ma'qullashga ehtiyoj; zerikish, xatar va o'tkir hissiyotlarga intilish; frustratsiya, majburiy himoya zarurati; altruizm (boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar evaziga qonunbuzarlik) bo'lishi mumkin:

Jinoyatni sodir etishiga deviant shaxsning jamiyatga qarshi fikrlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, odatlari sabab bo'lishi mumkin kriminologiyani shaxsning axloqiy fazilatlari, psixik xususiyatlari ham qiziqtiradi. Jinoyatchi shaxsini hamma xususiyatlarini inobatga olish lozim, chunki ular shaxs xatti – harakatlariga ma'lum darajada ta'sir etadi.

II Bob. O'smirlik davridagi deviant xulqni pedagogik tashxis qilish usuli

2.1. Deviant xulqni tashhis qilish usullari

Inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli tasnifi mavjud. Quyida atqli psixolog B. G. Ananov tavsiya qilgan klassifikatsiyaga asoslanib, deviant xulqni tashhis metodlarning xususiyatlarini yoritishga harakat qilamiz.

B. G. Ananov psixikani o'rganish metodlarini to'rtguruhga ajratib, ularni tashkiliy, empirik (amaliy), natijalarni qayta ishlash yoki statistik, natijalarni sharhlash metodlari deb nomlagan. [2.17. 72-bet]

Bu metodlardan o'z navbatida deviant xulqni tashhis etishda ham foydalaniladi.

Tadqiqot metodlarining birinchi— tashkiliy guruhi o'z ichiga qiyoslash, longityud (uzluksiz), kompleks (ko'pyoqlama) deb atalgan turlarni oladi. Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, sotsial psixologiya (katta yoki kichik guruhlarni hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash), tibbiyot psixologiyasi (SOG'LOM va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash) sport psixologiyasi (sportchilarning xolati, o'quvligi va ishchanligini o'zaro taqqoslash) kabi fanlarda unumli foydalaniladi. [2.9. 196-bet]

Deviant xulqni tashhis etishda qiyoslash metodidan o'smirlik yoshdagi odamlarning bilish jarayonlari, shaxs xususiyatlari, bilimlarni o'zlashtirishi, aqliy qobiliyati, salohiyati, rivojlanish dinamikasi, jinslarning tafovutlari va o'ziga xosligi kabilarni o'rganishda qo'llanadi. Keyingi yillarda xalq ta'limi sistemasi va ishlab chiqarishda «inson omili» muammosining ko'tarilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo'llashni taqazo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingan ma'lumotlarning ishonchliligini oshirishda ham qiyoslash metodi qo'llanadi. Aynisa, sinalluvchilardagi o'zgarishlarni ajratib olib qarash, tadqiqotning bosqichlarini alohida-alohida tahlil qilish, masalan, tajribaning birinchi bosqichi turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga qanday ta'sir etganini aniqlash va hokazolar bu metodga diqqat-e'tibor ortib borayotganidan dalolatdir. [2.18. 135-bet]

Deviant xulqni tashhis etishda qiyoslash metodi bilan bir davrda longityud (uzluksiz) metodi ham qo'llanadi. Uning boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto, o'n yillab tekshirilishidir.

Mazkur metod orqali bir xil jinsli (Xasan-Husan, Fotima-Zuhra) yoki aralash jinsli (Xasan-Zuhra, Fotima-Husan) egizaklar kuzatilgan. SHuning uchun qator tadqiqotlarning «ona kundaligi» (N. A. Menchinskaya, V. S. Muxina) deb nomlanishi bejiz emas. Uzoq vaqt-bir shaxsni (kichik guruhni) kuzatish unda paydo bo'layotgan yangi fazilatlarining rivojlanish dinamikasini, xulq-atvoridagi illatlarni (xatti-xarakat) va ularning oldini olish tadbirlarini, murakkab psixologik munosabatlari, ichki bog'lanish qonuniyati, mexanizmi to'g'risida mukammal, ishonchli, barqaror ma'lumotlar to'plash imkonini yaratadi.

Longityud metodi yordamida sub`ektiv omillarning o'ziga xosligini, ob`ektiv shart-sharoitlar va ijtimoiy muhitningsinaluvchiga ta'sirini o'rganiladi.

Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos, tibbiyot psixologiyasi, injenerlik yoki aviatsiya psixologiyasida tadqiqot ob`ektiga sistemali yondashish printsiplari amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan ob`ektdagi o'zgarishlar turli nuqtai nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi. [2.23. 224-c]

Ilmiy tadqiqot metodlarining ikkinchi guruhiempirik metodlardan iborat bo'lib, bu guruhga kuzatish (o'zini o'zi kuzatish), eksperiment (tabiiy, laboratoriya), test, anketa, so'rov, sotsiometriya, suhbat, intervyu, faoliyat jarayoni va uning maxsulini tahlil qilish, tarjimai hol (shaxsiy guvohnoma,

hujjat, turmush faoliyati voqealarini tahlil qilish) kabilar kiradi va ular sinash, tekshirish, diagnoz (aniqlash) va prognoz (oldindan belgilash) vazifalarini bajaradi. Insonda tug'ilganidan umrining oxirigacha sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni chuqurroq va ob'ektivroq tadqiq, etish uchun empirik metodlardan navbati bilan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi natijalarni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lib, ular statistik (miqdor) va psixologik (sifat) tahlil turlariga bo'linadi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda ko'pincha quyidagi statistik metodlardan foydalaniladi.

To'plangan miqdorlarni ishlab chiqishda mana bu formulalarni qo'llash mumkin:

- 1) $Mq \frac{v}{n}$ formulasi o'rtacha arifmetik qiymatni topish uchun ishlatiladi. M — yig'indi, v — variatsion miqdor, n — sinaluvchilar yoki ob'ektlarning sanog'ini bildiradi. [2.8 19-bet]

YUqoridagi statistik metodlar tajribalarda olingan qiymatlarning ishonchlilik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday metodlar haddan tashqari ko'p va biz ularning eng soddalariga to'xtab o'tdik.

To'plangan materiallarni psixologik tahlil qilish metodi mazkur mavzu uchun alohida ahamiyatga ega. Unda aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi), tekshiruvchi tajribalarda olingan har xil shakldagi ma'lumotlar turli printsip, pozitsiya, ko'p qirrali (kompleks) va yaxlit (sistemali) yondashishga asoslanib so'z-mantiq yordamida psixologik tahlil qilinadi. Barcha fikr va mulohazalar ishonchli omillar orqali isbotlab beriladi, psixologik qonuniyat, qonun, xususiyat, xossa, holat va kamolotning o'ziga xosligi asoslanadi. Material alohida guruhlar va sinflarga ajratiladi, psixologik voqelikning boshqa jihatlari bilan uzviy sababiy borliqligi, ichki murakkab munosabati bayon qilinadi, sinaluvchilar muayyan toifalarga kiritiladi va tadqiqotdan yakuniy xulosa chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot metodlarining to'rtinchi - sharhlash va genetik metodlaridan iboratdir. Genetik metod bilan tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar

yaxlit holda maqsadga muvofiq yo'sinda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi - sinaluvchida vujudga kelayotgan yangi shaxs fazilatlarining rivojlanishi va bilish jarayonlarining o'zgarishiga tajriba natijasiga suyanib ta'rif hamda tavsif berishdir. SHuningdek, bunda mazkur fazilat va xususiyatlarning namoyon bo'lish davri, bosqichi hamda ba'zi mashaqqatli daqiqalarga, paytlarga qo'shimcha shartlar berish imkoniyati tug'iladi.

Genetik metodga asoslanib psixik o'zgarishlar bilan rivojlanish bosqichlarining bevosita bog'liqligining ildizi aniqlanadi. Tanlash metodi bilan tadqiqot ob'ektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlar, o'ziga xoslik, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson nutqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda birgalikda to'qnashishi bunga yorqin misoldir. Bunda har bir bilish jarayonining ulushi ifodalanadi yoki uning ahamiyati alohida ta'kidlanadi, ularning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

Lekin tajribada to'plangan ma'lumotlarni sharhlash uchun yuqoridagi metodlarning o'zi yetarli emas. Uzilishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yig'ilgan materiallar maxsus bosqichlarga ajratib sharhlanadi. Tadqiqotning birinchi - tayyorlov bosqichida kashf qilinadigan psixologik qonun to'g'risidagi taxmin, faraz taxlil qilinadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida -tajriba o'tkazish printsiipi, sharoiti, ob'ektiv va sub'ektiv omillar bo'yicha mulohaza yuritiladi. Uchinchi bosqichda esa olingan natijalarni qayta ishlanadi va bu ham o'z navbatida to'rt pog'onaga bo'linadi: a) materialni birlamchi tahlil qilish: alohida olingan yoki topilgan omil, _ alomat, ko'rsatkich, xususiyat sharhlanadi; b) tahlil qilingan material bilan tadqiqot gipotezasi alohida sharhlanadi; v) ikkilamchi taxlil; barqaror, ustun dalillar ajratiladi; g) ikkilamchi sintez: psixologik qonuniyat, topilgan dalil omil va tadqiqot gipotezasini birlashtirib maxsus xulosa chiqariladi.

To'rtinchi bosqich - sharhlashda har bir fakt, alomat, ko'rsatkich, xossa psixologik jihatdan so'z-mantiq orqali taxlil qilinadi. Barcha ilmiy-amaliy

mulohazalar isbotlanadi, hech bir shubhaga, e'tirozlarga o'rin qolmaydi. Ana shu bosqichda tadqiqot yakunlanadi, zarur xulosalar chiqariladi, amaliy tavsiyalar beriladi, o'rganilishi zarur muammoning ahamiyati va istiqboli uqtiriladi. [2.6. 125-c]

Kuzatish- metodi. Bu metodning ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (o'zini o'zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi, jinsi aniqlanadi; 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi; 6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat, sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi; 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitofon, videomagnitofon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning individual, his-tuyg'ulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirliigi, xulq-atvori, nutq faoliyati va hokazolari o'rganiladi. Ammo o'ta murakkab ichki psixologik kechinmalar, yuksak hissiyotlar, tafakkur, mantiqiy xotira va aql-zakovatni tadqiq etishga bu metodning imkoni yetmaydi. Masalan, go'dak bolani kuzatishda uning harakatlari, o'yinchoqlarga munosabati, xis-tuyg'usi, talpinishi, mayli, xohishi aniqlanadi. O'quvchining darsdagi holatini kuzatishda esa diqqatning xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmasining o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar to'plashga imkoniyati tug'iladi. O'spirin yoshlarning sport faoliyatini kuzatish orqali ularning irodasi, ishchanligi, his-tuyg'usining o'zgarish xususiyatlari, g'alabaga intilishi, o'zining harakatini idora qila olishi yuzasidan materiallar yig'ishmumkin. Ishchining dastgoh yonidagi faoliyatini kuzatish natijasida uning o'z diqqatini taqsimlashi, qiyin damlarda o'zini tutishi, imo-ishoralari, tashqi qo'zg'atuvchidan ta'sirlanish darajasi haqida

keng ma'lumotlar yig'iladi. O'smirlardagi xulqidagi turli xil o'g'ishlar aniqlanadi.

Tashqi kuzatishda ba'zan tafakkur bo'yicha ham ma'lumotlar olish, ish ustidagi kayfiyatini, fikrining muayyan ob'ektga yo'naltirilganini, tashqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvish va iztirobni, ko'zdagi g'ayritabiiylikni, shuningdek, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhiy holatlarni kuzatib tafakkurning kechishidagi o'zgarishni aniqlash mumkin. Bulardan tashqari, qo'lningtitrashi, asabiylashtirish, nutqning buzilishi, hissiyotning beqarorlashuvi ham inson ruhiyatidagi o'zgarishlar bo'yicha ma'lumot beradi.

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'ekti va sub'ekti tanlanadi, mavzusi, o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy borliq savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suhbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni hal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suhbat orqali o'smir yoshdagi bolalarni tafakkuri, aql-zakovati, xulq-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Suhbat chog'ida O'ZARO izchil bog'langan savollar beriladi.

Test metodi. Test-inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. SHaxsning aqliy o'sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llanadigan qisqa standartmasala, topshiriq, misol, jumboqlar test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo'llanadi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, tekshiruvchining mahoratiga va qiziqishiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'ektivligi va ularni ilmiy tahlil qila bilishga bog'liqdir.

1905 yildan, ya'ni fransuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon - insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasiniolg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi.

CHet el psixologlari testlarni shaxsning iste'dod darajasini aniqlash vositasi deb biladilar. Biroq test tekshirilayotgan xodisalarning psixologik mezonini hisoblanmaydi. Malumki, bir muammoning yechimini izlash turli psixologik vositalar bilan amalga oshiriladi. CHet el testologlari tadqiqot ob'ektlarini o'zgartirib turadilar va qobiliyat, tafakkur, bilim, ko'nikma hamda malakalarni aralash holda o'rganishga intiladilar. Sinash jarayonida sinaluvchilarning emotsional holati va salomatligiga bog'liq ruxiy kechinmalarni inobatga olmaydilar.

Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozentsveyg, Kettel, Vartegg, Veksler, Meyli, Ayzenk, Anastazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga yutuqqa erishish, (maqsadga etish)testlari (ular darsliklarda berilgan va bilim, malaka darajalarini baholashga qaratilgan), intellekt testlari (aqliy rivojlanish darajasini o'lchashga mo'ljallangan), shaxs testlari (inson irodasi, emotsiyasi, qiziqishlari motivatsiyasi va xulqini baholashga yo'naltirilgan diagnostik usullardan iboratdir), shaxs «loyihasi» (proektiv) testlari (savollarga bitta aniq, javob berish talab qilinadi, javoblarni taxlil qilib shaxs xususiyatining «loyihasi» ishlab chiqiladi) kiradi.

Tajriba(eksperiment) metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlar (chaqaloq, bola, o'spirin, balog'atga yetgan va qariyalar)ning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodlari ichida eng muhimi hisoblanadi. Eksperiment metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o'sishi, favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning xis-tuyg'ulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi. Inson psixikasining nozik ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlari, qonunlari, xossalari, murakkab mexanizmlari tekshiriladi. Buning uchun eksperiment materialini tekshiruvchi sinchkovlik bilan tanlashi, ob'ektiv tarzda har xil

holat va vaziyatlarni, yaratishi, bunda sinaluvchining yoshi, aql-idroki, xarakter, xususiyati, his-tuyg'usi, qiziqishi va saviyasiga, turmush tajribasiga, ko'nikma va malakalariga e'tibor berishi lozim.

Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni hal qilishda qo'llanadi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda A. F. Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a'zolarining, ilmiy muassasalar xodimlarining, o'qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o'zgarishlari, o'zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxassislikka yaroqliligi muammolarini hal qilish nazarda tutiladi. Tabiiy sharoitda inson psixikasini o'rganishda sinaluvchilar (bog'cha bolalari, maktab o'quvchilari, ishchilar, dehqonlar, xodimlar va xokazolar) ning o'zlari bexabar bo'lishi, ta'lim jarayonida berilayotgan bilimlar tadqiqot maqsadiga muvofiqlashtirilishi, katta yoshdagi odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazish kundalik mehnat tarzi doirasida amalga oshirilishi, zavod va fabrikada esa moddiy mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim.

Laboratoriya (klinika) metodi ko'pincha individual (goho guruh va jamoa) shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblardan, yo'l-yo'riklar, tavsiyalar, ko'rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Hozir inson psixikasidagi o'zgarishlarni aniqlaydigan asboblardan, murakkab elektron hisoblash mashinalari (displeylar), qurilmalar, moslama va jixozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, holatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o'lchashda qo'llanadi. Ko'pincha detektorlar, elektron va radio o'lchagichlar, sekundomer, refleksometr, xronorefleksometr, lyuksmetr, anomaloskop, taxistoskop, audiometr, esteziometr, elektromiogramma, elektrontsefalogramma kabilardan foydalaniladi.

Laboratoriya metodi yordami bilan diqqatning sifatlari, sezgi, idrok, xotira va tafakkurning xususiyatlari, emotsional hamda irodaviy va aqliy zo'riqish singari murakkab psixik holatlar tekshiriladi. Ko'pincha laboratoriya sharoitida kishilar (uchuvchi, shofyor, operator, elektronchilar) va kutilmagan tasodifiy

vaziyatlar (xalokat, portlash, izdan chiqish, shovqin ko'tarilishi)ning modellari yaratiladi. Asboblarning ko'rsatishi bo'yicha o'zgarishlar, rivojlanish dinamikasi, jismoniy va aqliy toliqish, emotsional-irodaviy, asabiy zo'riqish, jiddiylik, tanglik qanday sodir bo'layotganini ifodalovchi ma'lumotlar olinadi.

Tajriba - aniqlovchi, tarkib toptiruvchi (tarbiyalovchi) va tekshirish qismlariga bo'linadi. Tajribaning aniqlovchi qismida psixik xususiyat, jarayon yoki holat o'yin, mehnat, o'qish kabi faoliyatlarda tadqiq qilinadi. Tadqiqot ob'ektining aynan shu paytdagi holati, imkoniyati aniqlanadi, lekin tekshiruvchi sinaluvchiga sub'ektiv ta'sir o'tkazmaydi. SHu pallada sinaluvchiga hatto, yo'llovchi savollar bilan ham yordam bermaslik tajribaning printsipli hisoblanadi.

Tarkib toptiruvchi tajribada sinaluvchilarda biror fazilatni, shakllantirish, shuningdek, ularga maqsadga muvofiq muayyan malakani yo'l-yo'riq va usulni o'rgatish rejalashtiriladi. Tajriba yakka, guruh va jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin. Buning uchun tajriba materialining hajmi, ko'lami, qancha vaqtga mo'ljallanganligi, nimalar o'rgatilishi, sinaluvchilarni psixologik jihatdan tayyorlash oldindan belgilab qo'yilishi shart.

Tekshirish tajribasida tarkib toptiruvchi bosqichda shakllantirilgan usul, vosita, yo'l-yo'riq, ko'nikma, malaka va shaxs fazilatlarining darajasini, barqarorligini aniqlash, ta'sirchanligiga ishonch hosil qilish uchun mohiyati har xil mustaqil topshiriqlar beriladi. Tekshirish tajribasi orqali tarkib toptiruvchi eksperimentning samarasi o'lchanadi. Mazkur tajribada ham tekshiruvchi sinaluvchiga mutlaqo yordam berishi mumkin emas, aks xolda tadqiqot o'tkazish printsipli buziladi.

Aniqlovchi, tarkib toptiruvchi va tekshiruvchi tajribalarda yig'ilgan ma'lumotlar, miqdor-statistik metodlardan foydalangan holda ishlab chiqiladi, shuningdek, miqdor tahlili o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi. Statistik metodlar yordamida insonning bilish jarayonlari bilan uning individual-tipologik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi va ta'siri (koppelyaktsiyasi) bilish jarayonlarining his-tuyg'u bilan boshqarilishi, aql-zakovat omillarini tahlil qilish amalga oshiriladi. So'ngra miqdorning hamda qo'llanilgan metodikaning

ishonchlilik, aniqlilik darajasi aniqlanadi. Ungacha ham matematik statistikaning sodda metodlaridan foydalanib ayrim hisoblashlar, masalan, o'rtacha arifmetik qiymat, miqdorlarni tartibga solish va medianani hisoblash, kvadrat chetga og'ishinitopish va boshqalar amalga oshiriladi.

Hozir injener psixologlar matematiklar bilan hamkorlikda inson psixikasining modelini yaratish ustida tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar, shuningdek, mediklar, fiziologlar, kibernetiklar psixikani programmashtirishni nihoyasiga yetkazmoqdalar. Ishlab chiqarishdagi «sun'iy intellektlar», robotlar, EHMlar ana shu izlanishlarning dastlabki samarasi hisoblanadi.

Biografiya(tarjimai hol) metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zakiva yozma ma'lumotlar muhim, ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai holi, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o'zgalar ijodiga bergan baholari, tanbehlari, taqrizlari alohida o'rin egallaydi. SHu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai hol haqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baholar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, taqrizlar o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Tarjimai hol ma'lumotlari inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatishda, uning suhbat va tajriba metodlari bilan o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Masalan, mazkur ma'lumotlar orqali ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar; she'riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va kashfiyotdagi tafakkurning o'ziga xosligini, shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod singari fazilatlarini o'rganish mumkin. Inson ongining xossasi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos va ijtimoiy xususiyatlari atoqli odamlar bildirgan mulohazalarda o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu tavsiflari orqali avloddan avlodga o'tadi.

Biografik ma'lumotlar odamlarning o'zini o'zi tarbiyalashi, nazorat qilishi, idora etishi, o'zining uslubini yaratishi, kamolot cho'qqisiga erishishi jarayonida namuna vazifasini o'taydi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bolalarning tarjimai holi asosida ilmiy tadqiqotlar, masalan N. A. Menchinskaya, V. S. Muxinaning kuzatishlari «Ona kundaligi» nomi bilan mashhurdir. SHunday tadqiqotlar chet el psixologiyasida ham keng tarqalgan. Badiiy adabiyotda yaratilgan ko'plab asarlar, masalan, A..N. Tolstoy, S. Ayniy, Oybek, Abdulla Qahhor va boshqa qator adiblarning esdaliklari tarjimai hol shaklida bo'lib, ular bilan tanishish natijasida mualliflarning his-tuyg'usi, temperamenti, xarakteri, qobiliyati, iste'dodi, qiziqishi, intilishi, mayli, layoqati, dunyoqarashi, e'tiqodi, nafosati, axloq va odobi to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin.

Anketa metodi. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtdan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi. Anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Tarqatilgan anketalar yig'ishtiriladi va elektron xisoblash mashinalarida xisoblanadi, atroflicha miqdoriy tahlil qilinadi, so'ngra tadqiqotga yakun yasalib, ilmiy va amaliy yo'sinda xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi. Lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bu kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi savollarni puxta ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Odatda anketa savollariga to'liq javob beriladi yoki qisqacha «ha», «yo'q.» deb yozib qo'yiladi, shartli belgilar bilan belgilanadi: bunda (Q) tasdiqlashni, (-) inkor qilishni bildiradi, ketma-ket berilgan bir nechta javobdan faqat bittasi tanlanadi va tagiga chiziladi yoki tartib raqami aylana ichiga olinadi. [2.17. 72-80-bet]

2.2. Tadqiqot metodologiyasi , metodikasi va uni o'tkazish bosqichlari

Deviant xulqqa moyil o'smirlar orasida intellektual va ijtimoiy yaxshi rivojlangan bolalar ham uchraydi. Ular uchun antiijtimoiy axloq o'z-o'zini ifodalash, o'zining o'zligi va ulg'ayganligini namoyish qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi. [2.21 304-c]

Ijtimoiy pedagog o'smirlarda axloqiy buzilishlarning sabablari va xarakterini ochishda bunday turdagi tashhis zaruriyati bilan, keyin esa valid metodik vositani izlash bilan albatta to'qnashadi.

Og'ishgan xulq shaxsiy determinantini tashhis qilishda yuqori differentsiallashtirilgan yondashuvni aniqlovchi ko'pgina moslashtirilgan psixotashhis metodikalar mavjud. [2.11. 30-bet]

Ijtimoiy-psixologik moslashganlik shkalasi (IPM)ning original varianti 1954 yil F.K.Rodgers va R.Daymond tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur so'rovnoma ommaviy maktabdagi «tarbiyasi og'ir bolalar»ning emotsiya va xulq-atvor sohasidagi buzilishlarini o'rganish uchun (Murzenko V.A. 1977), maktab moslashuvi - moslashmaganligining ko'rsatkichi sifatida boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga o'tishdagi qiyinchiliklarni o'rganish uchun (Prixojan A.M. 1984), ixtisoslashtirilgan maktabdagi ta'limning murakkablashgan shakllariga moslashish jarayonida o'smirlarda o'z-o'zini anglashning shakllanishiga xos xususiyatlarni o'rganish uchun (Snegireva T.V. 1978), o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari sharoitiga moslashishning individual xususiyatlarini o'rganish uchun (Osnitskiy A.K. 1992) o'quvchilarning turli guruhlarida sinab ko'rilgan.[2.11.35-bet]

«O'lchov vositasi sifatida IPM shkalasi nafaqat maktab moslashuvi-moslashmaganligi, balki o'quvchini o'z-o'ziga, o'z imkoniyatlariga bahosini undashiga xos qayta ko'rib chiqishga undovchi o'quvchining o'zi haqidagi tasavvurlari, uni murakkab yosh davrlari va murakkab vaziyatlarda qayta ko'rishni ham tashhislash ancha yuqori differentsiatsiyalash qobiliyatiga ega». Biroq ayni paytda metodikaning turli mahalliy variantlari yordamida olinadigan ko'rsatkichlar yetarlicha me'yorlashtirilmaganligi hamda so'rovnomadagi

hukmlar bilan ular nisbatlangan shkalalar o'rtasida qat'iy aloqadorlik yetarlicha emasligini ta'kidlash kerak. Ushbu holat bizni so'rovnomanini tahrirlab va mahalliy sharoitga moslashtirish uchun qo'shimcha ish olib borishga undaydi.

Metodikadan foydalanish jarayoni shuni ko'rsatadiki, u asosan o'smirlar va o'spirinlar uchun mo'ljallangan. Biroq u kichik o'smirlar bilan ishlashda ham yaxshi samara berishi mumkin.

Metodika asosini tashkil qilgan insonning ijtimoiy muhit va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati modeli o'z-o'zidan rivojlanadigan, o'z xulq-atvori uchun javob berishga qodir sub'yekt sifatida shaxs kontseptsiyasidan kelib chiqadi. Shkala 101ta hukmdan iborat bo'lib, ularning 37 tasi shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashganlik mezonlariga muvofiq keladi (bu mezonlar shaxs yetukligi mezonlariga mos kelib, ular orasida o'z qadrini bilish va o'zgalarni hurmat qilishga qodirlik, faoliyat va munosabatlarning real amaliyoti uchun ochiqlik o'z muammolarini tushunish va ularni hal etishga urinish kabilar mavjud). Keyingi 37 ta hukm moslashmaganlik mezonlariga oid (o'zini va boshqalarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qila olmaslik shaxsiy tajriba ustida fikr yuritishda «to'siqlar»ning mavjudligi, muammolardan qochish, psixik jarayonlarning mo'rtligi kabilar). Qolgan 27 ta betaraf hukmning bir qismini yolg'on shkalasini tashkil etadi.

A.M.Prixojan (1987) ishlab chiqqan xavotirlilik shkalasi Yondashning (1973) xavotirlanishning asosiy manbalari va darajasini aniqlab beruvchi «Ijtimoiy - vaziyatli xavotir shkalasi» tamoyili asosida tuzilgan.[2.11.33-bet]

Metodika amaliy psixolog tomonidan psixoprofilaktik maqsadlarda, o'quvchilarning «xavotir» guruhi, ya'ni o'zlari psixologga ehtimol murojaat ham qilmaydigan, o'qituvchilar va ota-onalaridan shikoyatlar bo'lmagan, biroq tashqi maqbullik ortida ma'lum shaxsiy nizolar, o'z-o'zini baholashning rivojlanishidagi nuqsonlar oqibatida faoliyat va muloqotning jiddiy sohalarida mayda muvaffaqiyatsizliklarni sub'yektiv his etish yashiringan o'quvchilarni aniqlashda qo'llanishi mumkin.

Ma'lumki, xavotirlilik mustahkamlashib, barqaror hissiy noqulaylikka sabab bo'lishi, salbiy omillar (masalan, asabiy zo'riqish) ta'sirida esa nevrozga o'xshash va psixosomatik buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Boshqa metodikalar bilan birga mazkur shkalaning qo'llanishi esa xavotirlilikning chuqur determinantlari va shakllarini aniqlash imkonini beradi. Shkalaning taklif etilayotgan varianti o'smirlarda sinalgan, natijalar standartlashtirilgan.

Metodika xavotirlilik turlariga mos keluvchi 3 xil vaziyatni o'z ichiga oladi.

Maktab bilan bog'liq xavotirlilik - bolada maktabdagi vaziyatlar, o'qituvchi bilan muloqotga oid xavotirlilik;

O'z-o'zini baholash bilan bog'liq xavotirlilik - bola o'zi haqidagi tasavvurlarni dolzarblashtirishi vaziyatidagi xavotirlilik;

Shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq xavotirlilik - muloqot vaziyatlari bilan bog'liq xavotirlilik;

Xavotirlilik ko'rsatkichlarini ajratish korreksiya nuqtai nazaridan mahsulдор, zero, u buzilish zonasini aniq lokalizatsiyalash va bu bilan xavotirlanishni bartaraf etish dasturini maqsadga muvofiq tarzda tuzish imkonini beradi.

Shaxslararo munosabatlar diagnostikasining "Shaxslararo munosabatlar interpersonal tashhisining modifikatsiyalashtirilgan varianti (T.Liri - Sobchik)"

O'smirning ijtimoiy voqelikdagi o'z-o'zini qidirish, shaxsiy xususiyatlarni aniqlash jarayoni ko'p hollarda ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Bolaligi nihoyasiga yetgan-u, hali katta bo'lmagan inson - o'smir uchun o'zining yangi «Meni» obrazini qidirish ancha og'riqli va davomiy kechadi. Ularga e'tibor bermaslikka urinish o'smirning atrofdagilar bilan munosabatlari buzilishiga olib kelmaydi.

Shaxslararo munosabatlar sohasida vujudga keladigan nizolar o'smirlar tomonidan emotsional affektiv tarzda qabul qilinadi, ular barkamol shaxs kamolotiga to'sqinlik qilib, o'smir hayotiy faoliyatning samarasizligiga sabab bo'ladi. [2.35.56-bet]

Shaxslararo munosabatlar tashhisining (T.Liri - Sobchik) modifikatsiyalashtirilgan varianti shaxslararo va ichki ziddiyatlar tuzilmasini o'rganish uchun juda qulay. Empirik jihatdan isbotlanganki, o'z-o'zini baholash tuzilmasi (real «Men» va ideal «Men»)-dagi jiddiy o'zaro nomuvofiqlik shaxsning ichki nouyg'unligidan darak berib, uning nizo uyg'otuvchi xulq-atvoriga sabab bo'ladi. Mazkur metodikaning qimmatini shundaki, u o'z-o'zini baholash tizimidagi nomuvofiqlik va uning xarakterini aniqlashga qodir bo'lgan yagona o'lchov asbobi ekanidadir.

Xilma-xil psixodiagnostik metodikalar orasida shaxslararo munosabatlarning interpersonal tashhisi anketalar va ko'p omilli so'rovnomalarning ijobiy tomonlarini o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar esa T.Liri (1969) ishlab chiqqan original variantdan asosan boshqa psixodiagnostik tadqiqotlar natijalari bilan qiyoslashda asoslab berilgan talqin bilan farqlanadi. Bundan tashqari, L.N.Sobchik tomonidan sport jamoalaridagi (1972, 1974, L.Sobchik), ishlab chiqarish jamoalari, talabalar jamoalari va boshqa turdagi kichik guruhlardagi (L.Sobchik 1986, M.Maleshina, 1986) shaxslararo munosabatlarni o'rganish jarayonida sinovdan o'tkazilgan metodikaning verbal materialini moslashtirish ishlari amalga oshirildi. Ammo metodikani qo'llash amaliyoti so'rovnoma hukmlarining ayrimlari mukammal tuzilmaganligi ko'rsatdi. Bu holat metodikani tahrirlash va moslashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga undaydi. Shuningdeq natijalarni qayd etish va hisoblab chiqishning o'zgacharoq qulay va tezkor usuli ishlab chiqildi.[2.14. 112-bet]

O'smirlar axloqida u yoki bu devyatsiyaga moyillikni aniqlashning universal metodikasi "Deviant xulq atvor tashhisi metodikasi" hisoblanadi. U quyidagi yetti shkaladan iborat:

1. Ijtimoiy xohishga yo'naltirish shkalasi - 15 band;
2. Me'yoriy va qoidalarni buzishga moyillik shkalasi - 17 band;
3. Addiktiv axloqqa moyillik shkalasi - 20 band;

4. O'z -o'ziga zarar keltiruvchi va o'z-o'zini parchalovchi axloqqa moyillik shkalasi - 21 band;

5. Tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik shkalasi — 25 band;

6. Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi - 15 band;

7. Delinkvent axloqqa moyillik shkalasi - 20 band.

Shuningdek bu so'rovnoma o'smirlarning harakatga keltirish, g'ayritabiiy tarzda fantaziya qilish va xobbi, jinsiy devitsiya, dismorfobiyaga moyilligini ham baholash imkonini beradi. [2.11.31-32-bet]

Tadqiqot ishimizning mohiyatidan kelib chiqqan holda N.G'.Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan "Deviant xulq atvor tashxisi" metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika Namangan viloyati Chust tumanidagi Xisorak QFYda hamda Namangan shahar Ozod MFY da istiqomat qiluvchi u yoki bu sabablarga ko'ra mahalla hududi nozirlarining e'tiboriga tushgan o'smirlarni 20 nafardan jami 40 nafar tekshiriluvchilar tanlab olindi. Tekshiriluvchilarga "Deviant xulq atvor tashxisi" metodikasini yo'riqnomasi bilan tanishtirildi. Bunda Xisorak QFYda istiqomat qiluvchi o'smirlar 1-guruh, Ozod MFY da istiqomat qiluvchi o'smirlar esa 2- guruh deb nomlandi. Tekshiriluvchilar bilan so'rovnoma o'tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

2.3. Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili


N.G'.Kamilova tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan "Deviant xulq atvor tashxisi" metodikasi tekshiriluvchlarda o'tkazilib natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval va diagrammalarda aks ettirildi. Bunda Xisorak QFYda istiqomat qiluvchi o'smirlar 1-guruh, Ozod MFY da istiqomat qiluvchi o'smirlar esa 2- guruh deb nomlandi.

Deviant xulq atvor tashxisi metodikasi bo'yicha natijalar tahlili

1-jadval

№	SHkalalar	1-guruh	2-guruh
1	Ijtimoiy hohishga yo'naltirilgan	12.6	13.4
2	Me'yor va qoidalarni buzishga moyillik	20.2	17.5
3	Addiktiv axloqqa moyillik	12.8	14.6
4	O'z o'ziga zarar keltiruvchi va o'zini o'zi parchalovchi ahloqqa moyillik	16.9	13.2
5	Tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik	19.6	23.2
6	Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi	12.3	10.2
7	Delinkvent axloqqa moyillik	14.7	16.4

Olingan ma'lumotlarning diagramma shaklidagi ko'rinishi 1-diagrammada aks ettirilgan.



Tadqiqotda ishtirok etayotgan sinaluvchilarning natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, ijtimoiy xohishga yo'naltirilganlik 12.6 va 13.4 ni tashkil qilib ularda jamiyat jabhasiga yo'nalganlik bir muncha ustuvorligi bilan belgilanadi. Me'yor va qoidalarni buzishga moyillik 20.2 va 17.5 ni tashkil qilib ularda umumiy jamiyat tomonidan qabul qilingan qoidalarni tan olmaslik va bo'ysunmaslik holatlari uchrashi xosdir. Addiktiv axloqqa moyillik sinaluvchilar orasida 14.6 va 12.8 ni tashkil qilib, ularda bir muncha xulqi og'ishga moyillikni mavjudligi bilan ajralib turadi. O'z o'ziga zarar keltiruvchi va o'zini o'zi parchalovchi axloqqa moyillik 16.9 va 13.2 ni tashkil qilib, ular har qanday narsadan foyda bilan zararni his qiladilar. Sinaluvchilar orasida tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik 19.6 va 23.2 ni tashkil qiladi bu esa ularda zo'ravonlik, bosim o'tkazish kabi xolatlarni mavjudligidan dalolat beradi. Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish sinaluvchilar orasida 12.3 va 10.2 ni tashkil qilib bu shaxsdagi o'zini- o'zi nazorat qilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Delinkvent axloqqa moyillik 14.7 va 16.4 ni tashkil qilib ularda atrofdagilardan farqli ravishda xulqdagi og'ishlar kuzatilishi mumkin. Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, o'smirlar xulq-atvorda me'yordan og'ishish holatlari, ayniqsa shahar hududida istiqomat qilayotgan

o'smirlarda bu ko'rsatikich biroz yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu holatning mavjudligi ularning ijtimoiy muhitning me'yor va qoidalarini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'smirlar hayotida deviantlikning bir turi zo'ravonlikka xos xulq-atvor shakllari tez-tez uchrab turadi. Ularga nisbatan odatda «urishqoqlik», «g'azablanish», «tegajonlik», «shafqatsizlik» tushunchalari ishlatiladi.

Ulg'ayib kelayotgan bolalar tajovuzkorligining haqiqiy psixologik sabablarini aniqlash ijtimoiy pedagogning birinchi darajali vazifasidir. Zero, uning oldini olish va korrektsiyalash vositalari, yo'l-yo'riqlarini belgilash uchun o'smir shaxsining emotsional - irodaviy, qadriyatli-me'yoriy sohasini o'rganish talab etiladi. Aynan shu sohalar murakkab sharoitlarda agressiv- tajovuzkor xulq-atvor shakllari yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Kundalik turmushda tajovuzkorlik tushunchasi «yomon niyatli faollik» ma'nosida qo'llanadi. Ammo destruktiv xulq-atvorning o'zi «yomon niyat»ga ega bo'lmaydi, uni «yomon niyatli» qiladigan narsa - faoliyat motivi, ya'ni faoliyat nima uchun, qanday maqsadlarda amalga oshirilayotganidir. Tashqi amaliy harakatlar juda o'xshash bo'lishi, ammo mutlaqo boshqa-boshqa motivlar sababli ro'y berishi mumkin. Shu nuqtai nazardan tajovuzkorlikning ikki asosiy tipini ajratish mumkin: birinchi - motivatsion tajovuz (bunda tajovuzkor harakatlarni amalga oshirishning o'zi ahamiyatli bo'ladi), ikkinchi - instrumental tajovuz (bunda tajovuzkor harakatlar biror maqsadga erishish vositasi sifatida ahamiyatli bo'ladi). Shaxsga xos destruktiv mayllar motivatsion tajovuzda namoyon bo'lgani tufayli amaliy psixologlarni aynan shu tipdagi tajovuzkor xulq-atvor qiziqtirishi kerak. Destruktiv mayllar darajasini tashhislab, ochiq motivatsion tajovuzning ro'yobga chiqishini bashorat qilish mumkin bo'ladi. Bunday imkoniyatni yaratuvchi tashhis vositalaridan biri Bass-Darki so'rovnomasidir.

Bass-Darki metodikasi sinaluvchi motivatsion sohasining xususiyatlari va bu insonga xos tajovuzkor xulq-atvor shakllarini aniqlash imkoniyatini beradi.

A.Bass va A.Darki tajovuzkorlik va dushmanlik mazmuniga ega reaksiyalarning bir necha shakllarini ajratib ko'rsatishadi.

Biz ham o'smirlarda deviant xulq bilan tajovuzkorlik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida tadqiqotlarimizda A.Bass-A.Darkining tajovuzni o'rganishga bag'ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika pedagogik-psixologik tadqiqotlarda, tashhis amaliyotida eng ko'p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o'smirlar tajovuzi bo'yicha to'la ma'lumot bera oladi. A.Bass-A.Darki metodikasi xorijiy va mahalliy pedagog-psixologlar tomonidan shaxsdagi emotsional jihatlarni, ya'ni, tajovuzkorlikni, salbiy hissiyotlarni diagnostika qilish uchun keng qo'llanilgan.

Mazkur metodika 75 ta mulohazadan iborat bo'lib, tekshiriluvchilarning javoblari maxsus kalit yordamida ishlab chiqiladi va kalitga asosan sakkizta ko'rsatkich bo'yicha ma'lumotlar olinadi. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy tajovuz – boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy harakatlar qilish.
2. Bilvosita tajovuz – to'g'ridan-to'g'ri emas, boshqa yo'llar bilan (chetdan, orqa-varotdan) amalga oshiriladigan tajovuz.
3. Jahldorlik – arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy –hissiyotlarini ko'rsatish (qo'pollik, tez jahl chiqishi).
4. Salbiy munosabatlar (negativizm) – oppozitsion muxolifatchilik) xulq, odatda biror-bir avtoritetga yoki rahbariyatga yo'naltirilgan bo'ladi, bu xulq talab etilgan qonun va odatlarga qarshi passiv qarshilikdan to faol kurashgacha o'sishi mumkin.
5. Alamzadalik – atrofdagilarga xasad qilish va ulardan nafratlanish, arzimagan ko'ngilsizliklarda ranjish, g'azablanish va "butun dunyoni ayblash".
6. Badgumonlik – atrofidagi insonlarga bo'lgan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik, fikricha, atrofdagilar ularga ataylab yomonlik qilishadi.
7. Verbal tajovuz – negativ hissiyotlarini so'z yordamida ifodalash (baqirish, janjallashish, tahdid qilish, so'kish, qarg'ash).
8. Aybdorlik hissi – sub'ekt o'zining yomonligi, atrofidagilarga zarar keltirishi

haqidagi o'y-fikrlari hamda vijdonan qiynalishi.


Metodikani o'tkazish jarayonida tekshiriluvchilarga quyidagicha yo'riqnoma berildi: "Quyidagi mulohazalarni diqqat bilan o'qing va sizga mos kelgan mulohazaning qarshisiga "+" belgisini, sizningcha noto'g'ri bo'lgan mulohaza to'g'risiga "-" belgisini qo'ying. Savollarni ko'p o'ylamasdan haqqoniy javob berishga harakat qiling". Metodikaning kalitiga ko'ra ba'zi savollarda "ha" javobiga, ba'zilarida esa "yo'q" javobiga bir ball beriladi.

**A.Bass-A.Darkining "Tajovuzkorlikni o'rganish" metodikasi
bo'yicha olingan natijalar tahlili**

2- jadval

Shkalalar	1-guruh	2-guruh
Jismoniy tajovuz	20%	18%
Bilvosita tajovuz	12%	11%
Jahldorlik	14%	12%
Salbiy munosabatlar	13%	16%
Alamzadalik	12%	10%
Badgumonlik	8%	12%
Verbal tajovuz	14%	15%
Aybdorlik hissi	7%	6%

Olingan ma'lumotlarning diagramma shaklidagi ko'rinishi 2-diagrammada aks ettirilgan.—



2- diagramma O'smirlik davrida tajovuzkorlikning namoyon bo'lishi

Tadqiqotlarimizda o'smirlik davrida deviant xulqqa tajovuzkorlikning ta'sirini o'rganayotganimiz uchun biz asosan jismoniy tajovuz, bilvosita tajovuz hamda verbal tajovuz ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlarni tahlil qildik.

“Jismoniy tajovuz” shkalasi bo'yicha o'rtacha arifmetik qiymat 20% va 18% ni tashkil etgan bo'lib, bunday holatlar o'smirlar ko'proq jismoniy kuchlariga tayanishlari ko'rsatadi. Shuningdek, ular uchun biror bir vaziyatni hal qilishning muhim yo'llaridan biri bu urishish, janjallashishda deb biladilar.

Ma'lumki, sinaluvchilar guruhiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bilvosita tajovuz 1-guruh o'quvchilarida yuqori ekanligi hamda 2-guruh o'quvchilarida esa ahamiyatli tarzda past ko'rsatkichga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu ulardagi tajovuzning shunday bir ko'rinishidirki, bu tashqi ta'sirlarga nisbatan tajovuzkorlik to'g'ridan-to'g'ri ochiq holatda bo'lmay balki, yashirin tarzda amalga oshishini ham ko'rishimiz mumkin. Metodikaning navbatdagi shkalasi jahldorlik sinaluvchilarda ahamiyatli ko'rsatkichlarni tashkil qiladi. Unga ko'ra, 1-guruh o'smirlarida 14% va 2- guruh o'smirlarida 12% ni tashkil qiladi. Bu esa o'z navbatida mazkur yosh davr uchun xos bo'lgan xususiyat deyishimiz mumkin. SHuningdek, jahldorlik juda kichik ta'sirga nisbatan ham negativ javob berishga tayyorlik (qiziqqonlik, qo'pollik) kabi jarayonlarda yaqqol

ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan bo'lsak, bunday holatni bo'lishi tabiiy holatdir.

Salbiy munosabatlar –o'rnatilgan urf-odatlar va qonunlarga nisbatan sust qarshilik ko'rsatishdan to faol qarshilik ko'rinishigacha bo'lgan oppozitsion qarash bilan belgilanadi. SHkalaning mohiyat-mazmunidan ko'rish mumkinki, o'smir shaxsi doimiy ravishda jamiyat, ota-ona va kattalar tomonidan qo'yilgan turli to'siqlarga nisbatan ichki qarshilik bilan javob berish xususiyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Unga ko'ra, 1- guruh o'smirlarida past ya'ni 13% va 2- guruh o'smirlarida 16% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'proq ularning kattalar ta'siridan qutilish hamda mustaqillikka ega bo'lishi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot natijalaridan ko'rish mumkinki, alamzadalik sinaluvchilar guruhida ahamiyatli tarzda pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, dastlab o'smirlar kattalarning xatti-harakatlaridan ranjigan bo'lsalar keyinchalik u odat tusiga kirganligi bilan tavsiflanadi. Badgumonlik-kishilarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlikdan tortib to kishilar tomonidan zarar yetkazish rejalashtirilmoqda yoki zarar keltiradi, deb ishonishga qadar bo'lgan diapozonni qamrab oladi. O'z navbatida o'smir shaxsi nafaqat o'zidan, balki o'zgalardan ham shubhalanish, atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatarni o'zida namoyon qiladi. Natijalarga ko'ra, badgumonlik 1- guruh o'smirlarida 8% va 2- guruh o'smirlarida 12% ni tashkil qilib, yoshga bog'liq ravishda ortganligini ko'rishimiz mumkin. Metodikaning navbatdagi shkalasi verbal tajovuz sinaluvchilar guruhida o'ziga xos o'rinda namoyon bo'lib, ahamiyatli ravishda ortganligi bilan tavsiflanadi. SHuningdek, sinaluvchilarning natijalariga ko'ra, 1- guruh o'smirlarida 14% va 2- guruh o'smirlarida 15% ni tashkil qilganligi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ko'rsatkichlarning bu tarzda namoyon bo'lishi ular kamol topayotgan muhitga, atrofdagilarning munosabatlariga, jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablar tizimiga bog'liqligi bilan belgilanadi. O'smirlik davrida shaxs tomonidan doimiy ravishda kutilgan yoki kutilmagan tarzda qonun-qoida buzish holatlari uchrab turadi. Bu esa o'z navbatida qilgan ishidan ta'sirlanish, uyalish, aybdorlikni his qilishi ma'lum ma'noda

ahamiyatsiz ko'rinishga egaligi bilan belgilanadi. Ta'kidlash joizki, aybdorlik 1-guruh o'smirlarida yuqori 7 % ni tashkil qilsa, 2- guruh o'smirlarida 6% ko'rsatkich qayd qilinadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatdagi turli xulq-atvor normalarini buzilish ular uchun odatiy holga aylangan bo'lib, mazkur narsalar uchun ular o'zlarida aybdorlikni his qilmaydilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, agressivlikni o'rganish metodikasi o'smirlarning tajovuz darajasini aniqlaydigan klassik metodikalardan hisoblanadi.[2.11.36-37-bet]

O'smirlar deviant xulq-atvorining ko'plab determinantalari orasida eng muhimlaridan biri shaxsning patoxarakterologik rivojlanishi va xarakter aktsentuatsiyasidir.

A.Lichko va L.Rubinalarning aniqlashicha, psixonevrologik dispanserlarda ro'yxatga olingan 78 foiz o'smirlar voyaga yetmagan bolalar ishlari bo'yicha inspektsiyada ham ro'yxatda turadi. Shu bois xarakter aktsentuatsiyasini erta tashhis qilish ijtimoiy pedagog ishida juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xarakter aktsentuatsiyasi - bu ba'zi xarakter xususiyatlarining o'ta kuchayib ketishi oqibatda, ayrim turdagi psixogen omillar ta'siriga berilishning ortishi va aksincha, boshqa ba'zi omillar ta'sirida beriluvchanlikning susayishidir. O'smirlik davrida xarakter aktsentuatsiyasi xususiyatlari ayniqsa kuchayib, tashqi tomondan psixopatiyani eslatib yuboradi. Bordi-yu, o'smirni qurshab turgan ijtimoiy voqelikda aktsentuatsiya tufayli paydo bo'lgan, A.E.Lichko so'zlari bilan aytganda, «qarshiligi eng ojiz bo'lgan joyga yo'naltirilgan» psixogen omillar bo'lsa, ijtimoiy moslashuvchanlikning buzilishi va shaxsning tegishli psixopatik tipga muvofiq shakllanishi kuzatiladi.

O'smirning xarakter aktsentuatsiyasi tipini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Aniqlangan tip xarakterdagi zaif nuqtalarni ko'rsatadi, bu esa moslashuvchanlikning buzilishiga qanday omillar sababchi bo'lishi mumkinligini oldindin ko'ra bilish imkoniyatini beradi. Bularning barchasi psixoprofilaktika ishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

1970 yilda A.E.Lichko tomonidan o'smirlar uchun mo'ljallangan patoxarakterologik so'rovnoma ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. So'rovnoma o'smirlik yoshida psixopatiya, psixopatik rivojlanish hamda xarakter aktsentuatsiyasida kuzatiladigan xarakter tiplarini aniqlashga mo'ljallangan. Gipertim tip. Asosiy belgilari - deyarli hamma vaqt juda yaxshi kayfiyat, gohi - gohida jahl, tajovuz, ta'sirlanish bilan almashinishi mumkin. Nafaqat tengdoshlari davrasiga oshiqadi, balki u yerda liderlikka intiladi. Hamma vaqt «hayot qaynayotgan» joyga oshiqadi. Qiziqishlari, reaksiyasi boy va xilma-xil, asosiysi - doimiy xobbisi yo'q. Odatda, o'z kelajagiga, hatto bunga asos yetarli bo'lmasa-da, ishonch bilan qaraydi. Muvaffaqiyatsizliklar keskin affektiv reaksiyaga sabab bo'lishi mumkin, biroq izdan chiqara olmaydi.

Tsikloid tip. Bolaligida gipertimlardan farq qilmaydi, biroq pubertat yoshga kelib, dastlabki subdepressiv bosqichi yuzaga keladi. Avval osongina uddalangan ishlar endi katta sa'y - harakatlar talab etadi, tengdoshlari davrasidan chetlanish va h.k. Kayfiyatga mos tarzda hamma narsa pessimistik bo'yoqqa ega bo'ladi. Mayda ko'ngilsizlik va omadsizliklar ish qobiliyati pasayishi natijasi bo'lib, juda og'ir kechadi. Tanbehlariga ba'zida qo'pollik hatto jahl bilan javob bersa-da, ko'nglida yanada tushkunlikka tushishi mumkin.

Labil tip. Asosiy xususiyati — kayfiyatning o'ta o'zgaruvchanligi. Arzimas sabablarga ko'ra kayfiyati tez va keskin o'zgaradi. Maqtoqlar, rag'batlardan samimiy quvonadi. Ko'ngilsizlik yo'qotishlar keskin affektiv reaksiyalarga sabab bo'lishi mumkin.

Sensitiv tip. Sho'xliklarni yoqtirmaydi, bolalarning katta davralaridan o'zini chetga oladi, umuman notanish odamlar bilan muloqotga kirishi qiyin. Biroq bu shizoidlarga xos autistik moyilliklar emas. Ular anchagina muloqotli. Tengdoshlariga kichiklar bilan o'yinni taklif etadi, yaqinlariga bog'lanib qoladi. Maktab dastlab xavotirga soladi, keyin ko'nikib qolgach, boshqa jamoaga istamaygina kirishadi. Ta'na va notatsiyalar o'smirlar uchun xos norozilikdan ko'ra ko'proq iztirob va hatto alam uyg'otadi. O'zining, ayniqsa. irodaviy va axloqiy - etik sohalaridagi ko'plab kamchiliklarini ko'ra biladi.

Shizoid tip. Asosiy belgilari - atrofdagilardan chetlanish, kamgaplik muloqot o'rnatishga qodir emaslik yoki buni istamaslik. Ko'p hollarda o'zining yolg'izligidan qiynaladi va yanada odamovi bo'la boradi. Qiziqishlari, fantaziyalari, manfaatlari dunyosiga kirishga kichik urinishlar ham keskin reaksiyaga sabab bo'ladi. Shizoidlardagi keskin affektiv reaksiyalar ko'pincha immunitiv tipda bo'ladi.

Epileptoid tip: disforiya (hissiy buzilish)ga moyillik va u bilan bog'liq affektiv portlovchanlik. Affektlar nafaqat kuchli, balki davomiy ham. Bunda keskin nafrat – so'kinish, kaltaklash va sh.k. kuzatiladi. Jahl uchun sabab arziyas bo'lishi mumkin, biroq uning manfaatlari kamsitilgan bo'ladi. Sabab tasodifiy bo'lishi mumkin va ko'p holda pichoq suyakka taqalishiga olib keladi.

Isteroid tip. Asosiy xususiyati - haddan ziyod egotsentrizm, diqqat markazida bo'lish, hayratga solish, hurmat, hamdardlikka intilish. Befarqlikdan ko'ra atrofdagilarning noroziligi va nafratini afzal ko'radi. O'zini ko'rsatishni yaxshi ko'radi. Emansipatsiya reaksiyasi namoyishkorona poklonoformizm - qabul qilingan qoida, qarash va me'yorlarni atay (ko'z-ko'z qilib) inkor etish. Kuchsiz tomoni - nafsoniyati kamsitilishi, ishonchlar barbod bo'lishi, nufuzi pasayishi bo'lib, affektiv reaksiyalar keltirib chiqara oladi.

Beqaror tip. O'yin-kulgi, bayram, bekorchilikka moyillik kuchliligi. Emotsiyalar beqarorligi, kuchsiz iroda va shukabilar xosdir.

Asteno-nevrotik tip. Toliquvchanlik, ta'sirchanlik va ipoxondriklikka moyilligi bilan ajralib turadi. Arziyas narsalar uchun atrofdagilardan «alamini oladi».

Psixastenik tip: kat'iyatsizlik, fikrlash, o'z-o'zini tahlil qilishni yaxshi ko'rish, obsessiyalar - qo'rquv, xavotirlarning oson hosil bo'lishi xos.

Konform tip. Narsalarning mavjud tartibini doimo va haddan tashqari passiv qabul qilish. Har qanday vaziyatda ko'pchilikka bo'ysunish, fikrlar qoliqli, sodda ekani. Konservatizm, «amaldagi axloqqa» moyillik. Konformlik notanish odamlardan xavfsirash, hamma qanday qilsa shunday qilish, hammadan qolib ketmaslikka harakat qilish, tanqidsizlik atrofdagilarning hamma gaplarini haqiqat deb bilish, yangilikni yaxshi ko'rmaslik va unga moslasha olmaslik,

tashabbuslik boshqalarga ergashib, noqonuniy ishlarga qo'l urish, odatiy muhitdan ajralganda emansipatsiya reaksiyasining keskinligi, qiziqishlarning to'laligicha muhit bilan belgilanishi, unga beradigan bahoning yomon emasligi. Xarakter aktsentuatsiyasi tiplari haqidagi ma'lumotning keltirilishiga asosiy sabab shundaki, so'rovnomada ballarga mos keladigan joylarda ushbu tiplarning bosh harflari qo'yilgan: G — gipertim, S — sikloid, LI - labil, A - asteno - nevrotik S — Sensitiv, P — psixostenik Sh — shizoid, E — epileptoid, I — Isteroid, B - beqaror, K - konform.

O'smirlik davrida deviant xulq-atvor va xarakter aktsentuatsiyasi o'rtasidagi aloqadorlikni aniqlashga qaratilgan tajriba ishimizda A.E.Lichkoning shaxs xarakter aktsentuatsiyasini aniqlashga qaratilgan metodikasidan foydalanildi. Metodika sinalluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadvalda aks ettirildi.

O'smirlarda xarakter aktsentuatsiyasini namoyon bo'lish

ko'rsatkichlari


(har bir ko'rsatkich 100% hisobidan olingan)

3- jadval

№	Aktsentuatsiya tiplari	1-guruh	2-guruh
1	Gipertim tip	28%	31%
2	TSikloid tip	44%	47%
3	Labil tip	36%	33%
4	Sensitiv tip	37%%	27%
5	SHizoid tip	42%	39%
6	Epileptoid tip	16%	15%
7	Isteroid tip	19%	14%
8	Beqaror tip	25%	32%
9	Asteno-nevrotik tip	34%	35%
10	Psixastenik tip	41%	38%

11	Konform tip	17%	22%
----	-------------	-----	-----

3-diagramma



Jadval hamda diagrammada keltirilgan ma'lumotlarni sifat tahlili shuni ko'rsatadiki, deviant xulqqa moyil o'smirlarda xarakter aktsentuatsiyasining tsikloid tipi, ya'ni kayfiyatning tez-tez o'zgarishi, beqaror tip- xulq-atvorni oldindan bashorat qilish imkonining yo'qligi- tez o'zgarishga moyillik, shizoid tip, asteno-nevrotik tiplar boshqa tiplarga nisbatan u yoki bu darajada ustunligi ko'zga tashlanmoqda. Biroq 1-guruh va 2-guruh o'smirlarining shaxsiga xos bo'lgan xarakter aktsentuatsiyasining namoyon bo'lishida juda katta tafovutlar aniqlanmadi. Bu o'smirlik davrida barcha yigit va qizlar uchun muayyan darajada aktsentuatsiya xosligidan dalolat beradi.

II bob bo'yicha xulosa

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi o'smirlik davrida deviant xulq-atvorni shakllanganligini empirik jihatdan o'rganish, profilaktik va korreksion chora-

tadbirlar mohiyatini ochib berishga bag'ishlangan. Unda o'smirlar guruhida tajriba ishlari o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Muammo doirasida to'plangan amaliy va nazariy ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalarni keltirib o'tish joiz.

- o'smirlik davridagi deviant xulqqa moyillik, ulardagi tajaovuzkorlik, xavotirlanish, hissiy zo'riqish holatlari bilan bog'liq;
- emotsional holatlar o'smir shaxsidagi deviantlikning yuzaga keltiruvchi asosiy sababi sanaladi;
- o'smir xulqidagi deviantlik bilan uning xarakteridagi turli tiplar o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjud;
- yuqori darajada validlikka ega va aniq differentsiatsiyaga ega metod va metodikalar yordamida o'smirlardagi deviantlikka moyillikni erta aniqlash mumkin;
- verbal, jismoniy, vositali va boshqa tajaovuz turlarining o'smir shaxsida yuqori darajada rivojlanganligi uning xulqida ba'zi deviant axloq turlarining namoyon bo'lishiga qulay sharoit yaratadi.

III Bob. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlar

3.1 Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlarga texnologik yondashuv

Deviant xulqqa moyil o'smirlar bilan olib borilgan tadqiqot davomida pedagogik korreksiya ishlariga texnologik yondashdik va maktab jamoasi, otalar, mahalla hududi nozirlari, ijtimoiy pedagoglar uchun quydagi texnologiyani ishlab chiqdik.

O'smir yoshidagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda murabbiy ishini tashkil etish texnologiyasi.

Turli deviant xulq-atvorning uzluksiz ravishda o'sishi jamiyat oldiga ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan xulqli o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning shakl va usullarini, texnologiyalarini topish vazifasini qo'ygan. Shu sababli deviant va delinkvent xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning ikki asosiy texnologiyalari, profilaktik va reabilitatsion ishlar fan va amaliyotda keng tarqalgan.

Profilaktika (oldini olish)-o'smirlar xulq-atvorida ijtimoiy xulqiy og'ishganlikning turli ko'rinishlariga asosiy sabab bo'luvchi sharoitlardan ogohlantirish, bartaraf qilish yoki neytrallashtirishga yo'naltirilgan davlat, jamiyatning ijtimoiy-tibbiy va tashkiliy-tarbiyaviy chora-tadbirlarining yig'indisidir. O'smirlarda deviant xulq-atvorning oldini olishga qaratilgan bir necha yondashuvlari mavjud.

1. Axborotli yondashuv. Bu yondashuv ijtimoiy me'yordan xulqiy og'ishganlik kelib chiqishida voyaga yetmaganlar (bu ijtimoiy me'yorlarni) bilmasliklari tufayli uni o'z asosiy yo'nalishi sifatida voyaga yetmaganlarga bu me'yorlarga rioya qilish, o'z huquq va burchlari haqida axborot berishdan iborat. Davlat va jamiyat qo'ygan talablarini bajarishda bolalarning yosh ko'rsatkichiga mos qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar haqida ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Bu ishni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televideniye)dan kino, teatr, badiiy adabiyot va boshqa san'at asarlaridan

foydalanish mumkin.

2. Ijtimoiy-profilaktik yondoshuv. Bunday asosiy maqsad – negativ holatlarning sabablari va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish, neytrallashtirish iborat. Voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik moddalarini iste'mol qilinishi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishlari haqida ma'lumotga ega emaslar. Ular giyohvandlik – shaxsiy ish deb biladilar, faqat giyohvandlik moddalarini tarqatish jinoyat deb hisoblaydilar. O'smir giyohvandlik va kuchli ta'sir etuvchi psixotron moddalar to'g'risidagi yangi qonun qabul qilinishi munosabati bilan bu moddalarni iste'mol qiluvchilar ham jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bizning jamiyatimizda o'smirlar o'rtasidagi alkogolizm-ichkilikbozlik profilaktikasi muammosi ham muhim o'rin tutadi. O'smirlar ichkilikbozlik va alkologizmning og'ir ijtimoiy va psixonevrologik oqibatlari haqida ham bilmaydilar.

3. Tibbiy-biologik yondoshuv. Bu yondoshuvning mohiyati ijtimoiy me'yorlardan og'ishganlikning oldini olishda tibbiy-profilaktik xarakterdagi turli psixik nosog'lom shaxslarga munosabat-biologik darajada bo'lishi lozim. Agar insonda psixik (ruhiy) rivojlanishi, sog'lig'ida turli nuqsonlar bo'lsa, u o'z ruhiy xususiyatlariga asosan ma'naviy-axloqiy me'yorlarni buzishi mumkin. Bu holatda insonga uni o'zgartirib bo'lmaydigandek qaraladi. O'smirda bunday psixik nosog'lomlikni o'z vaqtida aniqlash juda muhimdir. Chunki ular umuman xayolga kelmaydigan harakatlarni sodir etishlari mumkin. O'smir psixiatr mutaxassislar ko'rigidan o'tkazilib, shunga muvofiq tibbiy davo choralarini ko'rilishi lozim.

4. Ijtimoiy-pedagogik yondoshuv. Bu yondoshuv mohiyati o'smirlarni deviantlik xulq-atvoridagi shaxsiy xususiyatlarini qayta tiklash yoki to'g'rilashdan iborat. Ayniqsa, uning axloqiy-irodaviy shaxsiy xususiyatlarini qayta tarbiyalash shart. O'smirlarda, ularning irodaviy xususiyatlari, xulq-atvorida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z so'zi va ishining egasi bo'lish;

- o'smirning jinoyatga boshlovchi, jamiyatga zarar yetkazish kabi illatlarga bo'lgan qiziqish va harakatlarini to'xtatish;
- hozirgi davrda muhim bo'lgan masalalar bilan band qilish;
- huquqqa qarshi bo'lmagan, puxta o'ylab chiqilgan maqsadlarni qo'yish.[2.34. 38-bet]

Erki bo'lmagan inson flyugerga o'xshaydi, shamol qay tarafga essa o'sha tomonga o'giriladi. Bunday insondan ijtimoiy me'yorlarni buzish, jinoyatchilikni kutish mumkin. Uni yengillik bilan aldash, o'zgalarning so'zlariga quloq solishi. o'zga axloqiy qarash va baholarga og'dirish oson. O'zga axloqiy qarashlarga ergashib, u huquqbuzarlik va axloqsizlik xulq-atvoriga ega bo'ladi. Bunday insonlarni tarbiyalashda jamiyat tomonidan unga erkinlik va huquqlarini berib, uni o'z-o'zini boshqara olishga o'rgatish zarur. Bu borada zamonaviy murabbiyga quyilgan talablar aniqlanadi. Har bir tinglovchi o'zini tahlil qilib, kamchiliklarni aniqlaydi va bu ularga kelgusi ish rejasiga o'zining ustida ishlashga oid vazifalarini kiritishga yordam beradi.

Qo'llaniladigan vositalar: doska, marker, video-kamera, flamasterlar.

<i>Notiqning nutq samarasini ta'minlovchi omillar</i>	<i>Nutq samarasiga putur yetkazuvchi omillar</i>
Tinglovchi auditoriyani hurmat qilish	Auditoriyaga befarq bo'lish
Tinglovchilarni aqlli deb bilish (CHunki jamoa ongi doim yakka ongdan yuqoridir)	O'zini o'ta bilimdon deb bilish
Tinglashni o'rganish	Tinglashga toqatsizlik

Madaniyatli bo'lish	Madaniyatning yetishmasligi
So'z boyligi (sinonimlardan unumli foydalanish)	So'z boyligining yo'qligi, jargonizmlarni, varvarizmlarni ko'plab ishlatish
Savodli bo'lish (orfoepik, sintaktik xatolarga yo'l qo'ymaslik)	Tallaffuzda, jumla tuzishda g'alizliklar
Mantiqiyso'zlash (tizimlilik) Nutqso'zlashda «Muvaffaqiyatmoduli»danfoydalanish (1. Nima? 2. Nima uchun? 3. Qanday qilib? 4. Xulosa)	Uzuq-yuluq gaplar
Me'yorda imo-ishora, mimika, Pantomimika	Jonsizyokio'tahis-tuyg'uliso'zlash
Nutqqa jiddiy tayyorgarlik	Nutqni rejalashtirmaslik
Joy psixologiyasini o'rganish	Noma'lum joy bilan tanishmaslik
Tinglovchi auditoriya psixologiyasini o'rganish: A) yoshpsixologiyasi B) jins psixologiyasi V) kasb psixologiyasi va xokazolar.	Auditoriya psixologiyasidan emas, o'z istaklaridan kelib chiqib so'zlash
To'g'ri ton, tembr, tezlik tanlash	Muvozanatsiz so'zlash
Nutqni yurak orqali o'tkazish (jonli, samimiyso'zlash)	Nosamimiy, befarq so'zlash (hisobot uchun)
Yangicha (innovatsion) usullardan foydalanish	An'anaviy fikrlash
Nutqning betakrorligi	

(shahsiy hayotiy tajriba bilan sug'orilganligi)	Odatiy, kitobiy so'zlash
Joy psixologiyasini o'rganish	Noma'lum joy bilan tanishmaslik
Manba: WWW.pedagog.uz	

Na'munali pedagog bo'lish

<i>Yordam beruvchi omillar</i>	<i>To'sqin bo'luvchi omillar</i>
O'zim:	O'zim:
Maqsadga intilib astoydil ishlash; Turli imkoniyatlardan foydalanib, mashq qilish; Tanqidlarni to'g'ri qabul qilish; Notiqlik haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish; Hamkasabalarimni kuzatish va ulardano'rganish; Notiqlik to'g'risidagi video-kassetalarni tomoshaqilish; Kuchli va zaif tomonlar ro'yxatini tayyorlash;	Bilim yetishmasligi; Qo'rquv; O'ziga ishonchning yetishmasligi; Manbalar tanqisligi; yomon odatlar-illatlar Foydaning darrov ko'rinmasligi; Tayyorgarlikning kamligi; Jismoniy nuqson;
Boshqalar:	Boshqalar:
Ular menga ma'lumotlar bilan yordam berishlari mumkin; Yuksalish uchun hamkasabalarimdan mahsus sohalar bo'yicha maslahatlar	Meni tanqid qilishadi Ustimdan kulishadi; E'tiborsizlik qilishadi;


olish	
Tashkilot:	Tashkilot:
Mening o'sishim uchun manbalar qidiradi; Meni treningga jo'natadi; Meni rag'batlantiradi;	Qo'llab-quvvatlamaslik; Qadrlamaslik; O'sish uchun imkoniyatlar yaratmaslik;
Manba: WWW.pedagog.uz	

Kutilayotgan natija: Tinglovchilar o'quvchilarni notiqlik mahoratini oshirish yo'llari, nutqqa tayyorgarlik noan'anaviy usullari bilan tanishishadi va o'z tajribasidan va tajribali notiqlar hayotidan, ijodidan misollar keltiradi. O'zining va o'zgalarning tajribasi tahlil qilinadi.

«Aqliy xujum» uslubi yordamida namunali murabbiy qiyofasini guruh bo'lib aniqlash.

1 mashq: Kichik jamoalarda “Guruh portreti” uslubi yordamida namunali murabbiyga ta'rif berish.

“Guruh portreti” : Ishlashdagi izchillik shunday:Ektranda xazil shaklda chizilgan portret namoish etiladi. Bu - ramziy murabbiyning portreti.Tinglovchilarga quyidagi savol bilan murojaat etiladi: “Namunali bo'lish uchun murabbiy tanasidagi har bir a'zo muayyan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Vazifalarni aniqlang.” Har bir jamoaga ekrandagi portret nusxasi beriladi. Har bir jamoa fikrlab, ushbu portretga chizmalar yordamida ta'rif beradi. “Guruh portreti” ishning natijasi xisoblanadi. U bilan keyinchalik ishlash, ya'ni tahlil etish, aniq qadamlarni takomillashtirish, yaxshilash va boshqa maqsadlarda qayta ishlab chiqish mumkin.



Ushbu uslubdan “Murabbiylik soat”lari quyidagi mavzularga bag’ishlanganda foydalanish mumkin: “Namunali o’quvchi”, “A’lochi portreti”, “Muammoli o’quvchi”, “Namunali (kasbegasi)” va boshqalar. Avvalam bor, o’zimiz – murabbiylar ham notqlik jihatidan yorqin namuna bo’lishimiz darkor. Notqlik mahorati – muvaffaqiyat muhim omillaridan ekan, yoshlarimizda tarbiyaviy soatlarda erkin, tezkor fikrlashga imkon yaratuvchi zarur sharoitlar yaratishimiz, turli mashqlar tashkil etishimiz lozim. Notqlik mahorati – ishontirish usullarini o’rgatuvchi fan. Notqlik mahorati – na’munali murabbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil. «Aqliy xujum» yordamida yaxshi notiq qanday xususiyatlarga ega bo’lishi aniqlanadi. Notqlik mahoratini oshirishga qaratilgan mashqlar: «Reklama qilish» (o’zini o’zi, do’stini, guruhini, biror bir buyumni), «Hamma shanbalikka», «Tabriklayman, qutlayman» kabi mavzularda qisqa nutq tuzish. Bundan tashqari tezkorlikni, hozirjavoblikni oshiruvchi «Blits-o’yin», «Hikoya tuzish», «Ta’rif berish» (masalan buyumga, rangga, xarakatga, insonga) kabi mashqlar.

Videotrening yordamida tinglovchilar o’zlarini notiq sifatida baholaydilar. Baholashga ko’mak beruvchi savollar:

1. O’zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday ijobiy tomonlarimizni ko’rdik (ixtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o’ziga baho beradi);

2. O'zimizni notiq sifatida chetdan kuzatib, qanday salbiy tomonlarimizni ko'rdik (ixtiyoriy ravishda har bir tinglovchi o'ziga baho beradi);

3. Qaysi bir tinglovchini eng zo'r notiq deb hisoblaysiz? (O'zini maqtashi ham mumkin).

Xulosa. Nutqqa tayyorgarlik – psixologik jihatdan sovg'a tanlashga o'xshaydi. Sovg'a in'om etuvchilar uch toifaga bo'linadi:

1.O'ziga keraksiz narsani birovga sovg'a qilib yuboruvchi (madaniyatsiz);

2.O'ziga ravo ko'rgan narsani birovga in'om etuvchi (sovg'a taqdim qiluvchi sovg'a oluvchini o'zidek ko'radi);

3.O'ziga ravo ko'rgan narsadan ham a'lo narsani in'om etuvchi

Nutq shaxsan notiqning o'ziga yoqmasa, tinglovchilarga in'om etmasligi lozim. Nutq ham sovg'a kabi tinglovchilar uchun yoqimli va kerakli bo'lishi darkor. SHundagina nutq samarali bo'ladi. Hozirgi kunda eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor voyaga yetib kelayetgan yosh avlodni kamol toptirish, ya'ni ularni komil inson qilib tarbiyalash. "Aqliy xujum" uslubi orqali komillik nima, komil inson deganda qanday insonni ko'z oldimizga keltiramiz degan fikrlarni tinglovchilardan jamlab olamiz. Har bir xalqning o'zi intiladigan komillik timsollari bo'ladi. Ular ajdodlarimizning o'z farzandlarini mard, sog'lom, qo'rqmas va mukammal qilib tarbiyalash yo'lidagi orzularini ifodalaydi. Vazifa: Tinglovchilarning komillik timsollarini aniqlash. Ushbu mashq individual tarzda bajariladi. Tinglovchilar komil inson haqidagi orzulari qanday kishilar siymosida o'z ifodasini topganligini aniqlashadi va daftarlariga belgilashadi. So'ng, jamoadoshlari bilan fikr almashishadi. Maktab kishining ma'naviy shaxs sifatida shakllanishida poydevor rolini o'ynaydi. Bola bu yerda nafaqat bilim oladi, balki uning dunyoqarashi kengayadi. Uning aql-idrokli, teran fikr yurituvchi komil inson bo'lib yetishida bu muqaddas

dargohning ahamiyati katta. O'quvchilar sizdan ko'p narsani kutib qoladi. Siz unga yordam berasiz, uni yo'naltirasiz, to'g'ri yo'l ko'rsatasiz. SHuning uchun o'zingiz ham komillikka intilishingiz lozim. Buni siz "Mukammallikka intilish tizimi sizda mavjudmi?" so'rovnoma orqali bilishingiz mumkin. Bu so'rovnoma 15 ta'kiddan tarkib topgan.

«Mukammallikka intilish tizimi sizda mavjudmi?» so'rovnoma

5 – agar mazkur ta'kid haqiqatga to'la mos kelsa

4 – ko'proq mos kelsa

3 – ham ha, ham yo'q

2 – ko'proq mos kelmaydi

1 – mos kelmaydi

Tahlil qilishning yana bir uslubini tavsiya etamiz. Ushbu usulni qo'llash yo'li: har bir tinglovchi jadvaldagi bo'limlarga o'zi haqidagi ma'lumotlarni yozadi.

“KKIT” uslubi (SVOT-analiz, SWOT- analysis)

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar	Imkoniyatlar	To'siqlar

Maqsad: kishining kuchli va kuchsiz tomonlarini, imkoniyat va to'siqlarini aniqlash. Kuchli tomonlarini yanada kuchaytirish, kuchsiz tomonlarini yo'qqa

chiqarish yoki ularga qarshi immunitet hosil qilish, imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish va to'siqlarni bartaraf etish.

Misol uchun bir o'quvchi va talabaning tahlilini keltiramiz:

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar	Imkoniyatlar	To'siqlar
bilimli	loqayd	olimpiada	masofa
xorijiy tillarni biladi	dangasa	chet elda o'qish	oilaviy sharoit
madaniyatli	uyquchi	sport inshootlari	sog'ligi yomon

Kutilayotgan natija: o'quvchilar erishgan yutuqlari bilan qoniqmay yanada har tomonlama rivojlanishga harakat qilishadi.

Inson komillik sari qanchalik tezkor, ildam harakat qilib borsa, u o'z komilligiga shunchalik ertaroq erishadi. Bu esa jamiyatda taraqqiyotni jadallashtirishga munosib ulush qo'shishga olib keladi.

Qo'llanadigan vositalar: qog'oz, flomaster, marker, doska.

Tarqatma material:

<i>№</i>	«Komillik tizimi Sizda mavjudmi?» testi	<i>Ball</i>
1	Men o'zimni o'rganishga intilaman.	
2	Ish bilan va uy yumushlari bilan qanchalik band bo'lmay, o'zimga albatta vaqt ajrataman.	
3	Yo'limda paydo bo'layotgan to'siqlar meni faollikka	

	chorlaydi.	
4	Javob-aloqani kutaman, chunki bu o'zimni baholashga va tahlil qilishga yordam beradi.	
5	O'z faoliyatimni nazorat qilishni odat qilib olaman va albatta bunga vaqt ajrataman.	
6	Men hissiyotlarimni va tajribamni tahlil qilaman.	
7	Men ko'p o'qiyman.	
8	Meni qiziqtirayotgan masalalar bo'yicha doim bahs-munozaraga kirishaman.	
9	Men o'z imkoniyatlaringa ishonaman.	
10	Samimiy bo'lishga intilaman.	
11	Atrofdagilarning menga ta'sirini anglab yetaman.	
12	Kasbiy mahoratimni oshirishga intilaman va ijobiy natijaga egaman.	
13	Yangilikdan zavq olaman.	
14	Oshib borayotgan mas'uliyat meni cho'chitmaydi.	
15	Xizmat zinapoyasidan ko'tarilishimga ijobiy munosabatda bo'lar edim.	
Jami:		
<i>Manba: www.ziynet.uz</i>		

5 - agar mazkur ta'kid haqiqatga to'la mos kelsa

4 – ko'proq mos kelsa

3 – ham ha, ham yo'q

2 – ko'proq mos kelmaydi

1 – mos kelmaydi

So'rovnoma natijalari:

15 - 35 – Rivojlanishdan to'xtash kuzatiladi.

36 - 54 – Mukammallikka intilish tizimi mavjud emas, ko'pincha bu holat sharoitga bog'liq.

55 - 75 - Faol rivojlanish kuzatilmoqda.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy pedagog tomonidan quyidagi asosiy vazifalarni bajarishini ko'zda tutadi.

Birinchi vazifasi – diagnostika qilish. Bu faoliyat bolalarni tarbiyasidagi kamchiliklarni o'rganishlari xavfi omillarini yo'qotishga qaratilgan. Bu vazifa tarbiyasida nuqsoni bor bola haqida ma'lumotlar to'plash yo'li bilan amalga oshiriladi. Pedagog bolaning xususiyatlarini o'rganadi, uning oilasi haqida ma'lumotlar to'playdi, bolaga yomon ta'sir ko'rsatish manbalarini o'rganadi, aniqlaydi, mikromuhitning bolaga ta'sirini o'rganadi. Ma'lumotlar to'plash bolaning o'zi bilan. Uning ota-onalari. Sinf rahbari bilan suhbatlar, so'rovlar (og'zaki yoki yozma ravishda) amalga oshiriladi. Bundan tashqari standartlashtirilgan intervyu olish, kuzatish, oila va bolaning hujjatlarini o'rganish usullarini ham qo'llaniladi.

Ikkinchi vazifasi – taxmin qilish, uning mazmuni pedagog birinchi vazifasi asosida pedagog bolaning xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Uchinchi vazifasi – ta'lim-tarbiyaviy. Bu faoliyat ijtimoiy-pedagogik faoliyat mazmunini hamda uni amalga oshirish metodlarini tanlashni ko'zda tutadi. Pedagog bolaning ijtimoiy-reabilitatsiyasi jarayonida uning qaysi sifatlari tarbiyalanishi kerakligini aniqlaydi, bolaning ta'lim va tarbiyasidagi kamchiliklarini yo'qotadi.

To'rtinchi vazifasi - huquqni himoya qilish. Pedagogik o'z faoliyatini huquqiy asosda qurishi kerak, bu bolaning huquqlarini himoya qilishni hamda ularga rioya qilishni bildiradi.

Beshinchi vazifasi – tashkilotchilik. Bu bola bilan ijtimoiy-pedagogik faoliyat olib borishda turli mutaxassislarning ishtiroki va birgalikda ishlarni olib borishlarini talab etadi.

Oltinchi vazifasi – kommunikativ. Uning mazmuni ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishda ma'lumotlar almashish maqsadida uning ishtiroklari o'rtasida ko'plab aloqalar o'rnatilishi zaruriyati yuzaga kelishidan iborat bo'ladi.

yettinchi vazifasi – oldini olish – profilaktik, bu faoliyat olingan yaxshi natijalarni mustahkamlash, bolaning tarbiyasidagi nuqsonlarning takrorlanishi mumkinligini yo'qotishni ta'minlaydi.

O'zining faoliyatida ijtimoiy pedagog uchta asosiy rollarda ishtirok etadi:

- maslahatchi sifatida, u ota-onalar va bolalar o'rtasida janjalsiz, tortishuvsiz, kelishib munosabatlarda bo'lish muhimligi va mumkinligi haqida oilaga ma'lumotlar beradi.- konsultant rolda, oilaviy, mehnat, boshqaruv va jinoiy qonunchilikni hamda psixologik, pedagogik, ijtimoiy pedagogik masalalarini tushuntiradi.

- ota-onalar yoki yaqin atrofidagilari tomonidan bolaning huquqlari buzilgan hollarda himoyachi sifatida harakat qiladi.O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda va yangicha yondoshuvida hamkorlik faoliyatining shakl va usullaridan foydalanadi.Zamonaviy oilalarning katta a'zolari yuqori darajada band bo'lishlari sababli ta'lim muassasalari pedagogik jamoalari bilan o'zaro aloqalari yo'q. Shuning uchun ota-onalar o'smirning haqiqiy ichki dunyosi haqida, uning qiziqishlari va talablari haqida to'la tasavvurga ega bo'lmaydilar. Bular ota-onalarda bolaga ko'r-ko'rona muhabbatni yuzaga keltiradi.Ota-onalarning bunday bir tomonlama qarashlarini ota-onalarning

maktab bilan aloqalarini yaxshilash yo'li bilan yo'qotish mumkin edi. Ma'lumki, bolaning xulqi yomon belgilarini ancha ob'ektiv baholaydilar. Bunday hollarda ota-onalarga pedagoglar malakali yordam ko'rsatishlari mumkin bo'ladi. Bolaning oiladan tashqaridagi yaqin odamlari haqida ota-onalar quyidagi yo'llar bilan xabardor bo'ladilar:

a) ularning qiziqtirgan uning o'zi haqidagi va uning do'stlari haqidagi muammolarni qo'pol va odobsiz usulda talab etadilar.

b) bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxsdan oladilar.

v) bolaning xulqini o'zlari kuzatishlari natijasida.

Ota-onalar odatda bolaga o'zlariga yoqqan bolalar bilan do'st-o'rtoq bo'lishni majbur qilishga harakat qiladilar. Aynan ana shu bolani ota-onasidan uzoqlashtiradi, uni yolg'onchi qiladi. Ota-onalar bola bilan muomalani bilmaydilar. SHuning uchun ota-onalarni umumiy pedagogik o'qitish tizimini yaratish zarur, masalan, maxsus seminarlar o'tkazish yo'li, bu maqsadlarda ommaviy axborot vositalardan foydalanish yo'li bilan, yoki ijtimoiy pedagoglar va psixologlar yordamida ishlab chiqilgan "Oila xizmati" tizimlari yordamida. Bugungi kundagi ota-onalar ko'p tomondan huquqiy va pedagogik sohada tayyor emaslar. SHuning uchun ular bolagi nisbatan jinoiy xavf solinganda o'z farzandlariga to'g'ri harakat qilish bo'yicha biror-bir maslahat berishga qodir emaslar. SHu sababli ota-onalar orasida va oilaning katta a'zolari orasida profilaktik ishlarni amalga oshirish zarurati yuzaga keladi. Ota-onalar ma'lum yuzaga kelgan vaziyatda o'zini qanday tutish kerakligini tushuntirib berishlari, bolani ayniqsa, notanish odamlar bilan tanishishda yoki notanish yangi joylarda bo'lishlarida diqqat-e'tiborli, ehtiyotkor bo'lishlarini tushuntirishlari kerak. Katta shahar sharoitida o'smir uchun zarar tegishi xavfi ayniqsa, yuqori bo'ladi. Bu yerda o'smirning xulqi asosiy yo'nalishi ularga xavfli joylarga borishni ta'qiqlagan ota-onalarining talablarini qat'iy bajarishi bo'ladi. Bolalarlarning jinsiy tarbiyasi zamonaviy holati haqida olingan ma'lumotlar bu muammoni hal

etishda ko'plab jiddiy xatolar va kamchiliklar borligini ko'rsatadi. Kichik va katta sinf o'quvchilari jinsiy tarbiya masalalari bo'yicha faqatgina qisqa ma'lumotlar oladilar. Hozirgi paytda respublikamizda yangi fan kiritilgan, "Sog'lom avlod asoslari". Bu fanning dasturida jinsiy tarbiya haqida bo'lim bor. Lekin faqatgina jinsiy masalalarni o'rganishning o'zigina yetarli emas. Balog'at yoshiga yetmaganlar jinsiy daxlsizligiga jinoiy tajovuz qilish bilan kurashish bugungi kunda juda dolzarb hisoblanadi. Chunki bu holat aniq bir balog'atga yetmagan yoki o'smirning o'ziga emas, balki uning atrofida qilargalarga ham juda katta ma'naviy zarar ko'rsatadi.[2.26. 95-bet] Bafarqlik, beraxmlik bilan jinoyat sodir etish usuli o'smirlar tomonidan (tarbiyasida kamchiliklari bo'lganlarida) faol huquqbuzarlik faoliyatiga, shunga o'xshash harakatlarni amalga oshirishga chaqiriq deb qabul qilinishi mumkin. Boshqa tomondan bu o'smirlarga uning tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (ya'ni, o'smirlar tengdoshlari va kattalarga ishonchsizlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladigan bo'lib qoladilar). SHundan kelib chiqib, bunday jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligiga to'g'ri baho berish va ommaviy axborot vositalari, pedagoglar, ota-onalarni jalb etib profilaktik ishlarni olib borish zaruriyati yuzaga keladi. Tibbiyot xodimlari va huquqiy muxofaza qilish organlari seksual asosda tajovuzkor xulqli shaxslarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan tegishli chora ko'rish bo'yicha birgalikda ish olib borishlari kerak. O'g'il bolalar va qizlar o'zaro munosabatlari muammolari o'smirning jinsiy yetilish yoshidan ancha avval yuzaga keladi. Bolalar va qizlar orasidagi yaqin aloqalar, munosabatlar haqidagi ma'lumotlar odatda noto'g'ri tushuniladi. Bola bu haqida ishonchli manbalardan qanchalik kam ma'lumotlarga ega bo'lsa, u bu sohaga shunchalik ko'p qiziqadi. SHuning uchun jinsiy tarbiyalash asoslari erta bolalik yoshidan boshlanishi kerak bo'ladi. Akseleratsiya sababli bugungi kunda o'smirlarning erta jinsiy yetilishlari va uning ijtimoiy tashkil topishi jarayoni ancha uzoq davom etishi o'rtasida uzilish yuzaga kelgan. Bu holat bir qator muammolarni keltirib chiqardi, masalan, doimiy ravishda kinomotografiya, videofilmlar, matbuotdagi maqolalar

va boshqa erotik manbalar tomonidan qo'zg'atib kelinayotgan jinsiy instinktlarining uzoq qondirilmasligi kabi. Bu muammoni hal etish o'smirlarni sportga ommaviy jalb etish, ijtimoiy jamoatchilik ishlarida ishtirok ettirish bilan mumkin bo'ladi. SHu sababli bizning fikrimizcha bunday ishlarning hamda yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikni olidini olish bo'yicha faoliyatlar markazi umumta'lim maktabi bo'lishi kerak deb to'g'ri fikr aytilmoqda, maktab oilaga nisbatan va boshqa ijtimoiy institutlarni boshqarishi kerak bo'ladi. Haqiqatan, maktab oilaga, ota-onalarga yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi bo'lishi kerak. Maktab bu ishga ijtimoiy pedagoglarni, tibbiyot xodimlarini, huquqiy himoya qilish organlarini jalb etishi kerak. Bu ishlar maktabning ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda tarbiyaviy-profilaktik vazifalarni ancha kengaytiradi. Bu ishda qo'shimcha ta'lim, bolalarning dam olishlari va ijod bilan shug'ullanishlari, bolalar va yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining ham roli katta.

3. 2. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan pedagogik korreksion ishlar dasturi

Olib borilgan tadqiqot davomida pedagogik korreksiya va o'z-o'zini adekvat baholashga oid trening mashg'ulotlari dasturi ishlab chiqildi hamda aniqlangan deviant xulqqa moyil o'smirlar bilan birgalikda mashg'ulotlar tashkil etildi.

Trening vazifalari: o'zgalar bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish; deviant xulqining korreksiyasi, o'zini-o'zi baholash va assertiv xulqni shakllantirish. Trening mashg'uloti har biri uch soatli sakkizta mashqdan iborat bo'lib, jami 24 soatga mo'ljallangan.

1-mashg'ulot «Tanishuv»

Guruh a'zolarini bir-birlari bilan yaxshi tanishib olishlariga yordam berish; guruhda samarali ishlashning muayyan qoidalari va treningning asosiy maqsadi bilan tanishtirish.

«Bo'laklangan otkritkalarini birlashtirish»

Trening ishtirokchilari bo'laklangan otkritkalarini birlashtirish orqali o'z guruhdoshlarini aniqlaydilar. Masalai: quyosh, moychechak, tog` shu'lasi va hokazolar kabi o'z beydjiklariga ega bo'ladilar.

Intervyu:

Ishtirokchilar juftliklarga bo'linib, bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar.

Muloqotchanlik

Maqsad: muloqotchanlik malakalarini shakllantirish; ishtirokchilararo qayta aloqalarga asoslangan sharoitda tarbiyalanganlik sifatlarini namoyon etish.

Ishtirokchilarga stress yoki nizoli holatdagi insonga xos xulq uslublaridan, «murosasiz», «ayblovchi», «tahlilchi», «adashgan» kabi sifatlardan o'zlariga mosini tanlash tavsiya etiladi. So'ngra munozara uchun biror mavzu tanlanib, har kim o'z uslubiga ko'ra mushohada yuritadi.

«Yordam ko'rsatish va masalani hal qilishning funktsional rollari»

Maqsad: ishtirokchilarning o'zaro mulohazalaridan qayta aloqani aniqlash; guruhda qaysi funktsional rollarga o'ta past yoki o'ta yuqori o'rin berilganligini aniqlash.

Guruh a'zolaridan yarmi doira o'rtasida o'tirib, mavzu yuzasidan bahslashadilar. Qolgan ishtirokchilar esa ularning atroflariga o'tirib olib, o'zlarini jalb qilgan guruh a'zosidan birining xulqini diqqat bilan kuzatadilar va qaysi xulq shakli, jumladan, ustunlikka erishishga intilish, tajovuz, befarqlik yoki hammasini ostin-ustun qilishga moyillik kabi besamara xatti-harakatlarni ajratadilar. 15-20 daqiqadan so'ng ishtirokchilar o'z rollarini almashadilar.

2-mashg'ulot

«Salomlashish»

Har bir ishtirokchi bir-birlariga yaxshi niyatlar bildirgan holda salomlashadilar.

«Yaqinlashuv»

Maqsad: axloqshunoslik malakalarini shakllantirish; guruhni jipslashtirish.

Barcha ishtirokchilar zalda yuguradilar va treningning signaliga ko'ra, ikkita yoki uchtdan bo'lib guruhga birlashadilar. Sarflanadigan vaqt: 15 daqqa.

«Avtobus».

Maqsad: noverbal muloqotchanlikni rivojlantirish; muomala malakasini rivojlantirish.

Ishtirokchilar ikki guruhga ajraladilar. Guruhning yarmi avtobus ichida, yarmi esa avtobus to'xtash joyida, Noverbal malaka yordamida axborotni guruh ishtirokchilaridan biriga yuborish kerak.

Nizoli vaziyat: «hujumchi» va «himoyalannuvchi»

Maqsad: o'z nuqtai nazarini faol himoya qilish ko'nikmasiga ega bo'lish va bilan kelisha olmayotgan shaxslarni durustroq tushunish; ishtirokchilar guruhga ikkitadan bo'linib, bir-birlarga qarama-qarshi o'tirib olgan holda, avval «hujumchi» keyin «himoyalannuvchi» rolida o'z fikrlarini uqtirishga harakat qiladilar.

«Ishonchli yiqilish»

Maqsad: psixomotor o'zaro ta'sir malakalarini shakllantirish; guruh a'zolari orasida ishonch hissini uyg'otish.

Ishtirokchilar qo'llarini mahkam ushlagan holda katta doira tashkil etadilar. Doira markazida turgan ishtirokchi ko'zlari yumuq va bo'shashgan tarzda ularning qo'liga yiqiladi. Sarflanadigan vaqt: 15 daqiqa.

«Kimsasiz orol»

Maqsad: guruhda konsensus jarayonini izlashda samarali xulq-atvorga o'rgatish; ustivorlik va boshqaruv munosabatlari haqida axborotga ega bo'lish hamda guruhni uyushtirish.

Har bir ishtirokchiga 15 daqiqa ichida ko'rsatmaga binoan vazifani bajarish yuklatiladi. Ularning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan foydalanib, iloji boricha tezroq kimsasiz orolni tark etishni hal qilishdir. So'ngra ularga 20 daqiqa ichida o'zaro fikr almashib, o'zaro maqbul xulosaga kelishlari uchun vaqt beriladi. Ular muvaffaqiyatga erishishlari uchun boshqaruvning yagona usuliga yakdil kelishlari kerak.

«Xushomad»

Maqsad: xulqning yangi usullar va empatiya malakalarini tiklash; bir-birlariga pozitiv ustanovkalar va xushomad qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Har bir ishtirokchi o'zi xoxlagan guruh a'zosining yoniga kelib, unga o'zining eng yaxshi dil so'zlarini izhor qiladi.

3-mashg'ulot

«Rangli kaftlar»

Maqsad: guruhga hissiy qulaylikni yaratish.

Trener uch xil (qizil, sariq va ko'k) «rangli kaft»lardan birini ishtirokchilarga ko'rsatganda, ularning har biriga mos ko'rish (salomlashish) harakatlari bilan javob qaytirishlari kerak. Masalan: qizil kaft - qo'lni siqib, sariq kaft — orqaga qoqib, ko'k kaft — elkani silab. Ishtirokchilar ko'rsatmaga binoan iloji boricha ko'pchilik bilan ko'rishishga erishishlari kerak.

«Ideal, zamonaviy va yomon o'smir»

Maqsad: o'smirlarda ma'naviy sifatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Ishtirokchilar uch guruhga ajraladilar. Birinchi guruh a'zolari «ideal» o'smirlarga xos sifatlarni, ikkinchi guruh zamonaviy va uchinchi guruh yomon sifatlarni yozma qayd etadilar. So'ngra barcha ishtirokchilar ularning har birini muhokama qiladilar.

«Tajovuzkor javoblar»

Maqsad: tajovuzkor javoblar bilan tanishtirish; vujudga kelgan qiyinchiliklarni adekvat baholashni shakllantirish.

1-bosqich: Trening ishtirokchilariga tajovuzga qarshi javob usullarini qisqacha bayon qiladilar;

Aralashuv: «Men bunday tazyiqdan o'zimni yo'qotib qo'ydim» .

Mening fikrim: agar menga baqirishsa, (tajovuzkorning harakatlari talqini) odatda o'zimni yomon his qilaman; keling yaxshisi, boshqa xonaga o'tib, Sizning da'voingizni hal qilamiz.

Siz javobgarsiz. Siz ishonch bilan aytmoqchisiz-ku, ...

«Yaxshilikka yomonlik»: tajovuzkorga minnatdorchilik bildirish uchun doimo biror bahona topish mumkin, masalan, mening muvaffaqiyatlarimni kuzatishingiz meni ragʻbatlantiradi.

«Niqob»

«Biz har qanday xohish-istakni bajarishga tayyormiz»

Taʼkidlash joizki, ushbu usullar tajovuzning avj olishiga toʻsqinlik qiladi.

2-bosqich. Ishtirokchilar guruxlarga ajralgan holda, tavsiya etilgan usullarning biriga (faqat 7 daqiqa ichida) yozma tarzda javob qaytaradilar. Mashgʻulot davomida esa ular oʻz variantlarini toʻldirgan holda fikr almashish huquqiga ega boʻladilar.

3-bosqich. Ishtirokchilar trener oʻqib eshittirgan hukmlarga oʻz munosabatlarini bildiradilar, ayni vaqtda ularning javoblari tajovuzning qaysi reaksiyasi tipiga toʻgʻri kelishiga qarab doskada qayd etib boriladi. Mashgʻulot davomida ishtirokchilarga eng maqbul javob variantlarini yozib borish imkoni beriladi. Eng koʻp qayd etilgan usul esa eng maqbul usul sifatida tan olinadi.

«Diqqat markazida»

Maqsad: oʻz emotsional holatini nazorat qilishga oʻrgatishni shakllantirish.

Ishtirokchilardan biri doira oʻrtasida, qolgan qatnashchilar esa uni nimadandir ayblab, koyiydilar. Ishtirokchi oʻzining emotsional holatini nazorat qila bilishi zarur. Mashgʻulot davomida har bir ishtirokchi «diqqat markazida» boʻlishi kerak. Oʻz his-tuygʻulari va ularning ifodalanish darajasini qayd etib boradilar.

«Doira ichiga kir»

Maqsad: guruh uyushganlikni quvvatlash; ruhiy zoʻriqishdan chiqish.

Har bir ishtirokchilar galma-gal yopiq doiraga kirish uchun harakat qiladilar.

«Xulqni toʻliq oʻzgartirish yoki boʻrttirish»

Maqsad: guruh nizolarni va oʻylab topilgan rollar tahlili orqali xulqni modifikatsiya hamda korreksiya qilish.

Ishtirokchi yoki guruh aʼzolari tomonidan nomaqbul shaxsiy xulq sifatleri ajratiladi. Uni toʻliq anglashga urinib, undan voz kechish usullari topiladi.

Mashg`ulot nihoyasida har bir ishtirokchi o`z fikr-mulohazalari bilan o`rtoqlashadi.

4-mashg`ulot

«G`aroyib salomlashish»

Maqsad: beg`araz do`stona munosabatlarga erishish. Ishtirokchilar o`zlari topgan salomlashish usullariga asoslanib ko`rishadilar.

«Siquv»

Maqsad: relaksatsiya holati usullarini shakllantirish va psixofiziologik siquvni yo`qotish.

Ishtirokchilar maxsus noqulay vaziyatda o`tirib, muskul yoki paylarda «siquv», ya`ni zo`riqish holatini vujudga keltiradilar.

So`ngra zo`riqishdan chiqishga harakat qiladilar va o`z taassurotlari bilan o`rtoqlashadilar.

«Ishochli, ishonchsiz va tajovuzkor javoblar»

Maqsad: turli vaziyatlarga nisbatan adekvat reaksiyani shakllantirish. Guruhning har bir a`zosi qayd etilgan vaziyatlarga ishonchli, ishonchsiz va tajovuzkor javob tiplarining qay biri to`g`ri kelishini ko`rsatishi lozim.

Do`stingiz siz bilan suhbatlashmoqda, lekin siz ketishingiz kerak. O`rtog`ingiz sizni ogohlantirmasdan begona kishini olib keldi. Kinoteatrda orqangizda o`tirgan odamlar baland ovozda gapirib, kino ko`rishingizga imkon bermayaptilar. Fikringizcha, qo`shningiz o`zining ahmoqona savollari bilan sizni tutib turibdi. O`qituvchingizning fikricha, Sizning kiyinishingiz va soch turmagingiz o`quvchining tashqi ko`rinishiga xos emas.

Vaziyatni juft-juft bo`lib tahlil qilish mumkin.

«Do`stona hazil»

Maqsad: bir-biriga nisbatan ijobiy ustanovkalarni yaratishni shakllantirish.

Ishtirokchilar guruh a`zolarini quvnoq rasmlarda ifodalaydilar.

«Surbet»

Maqsad: nizoli vaziyatdan adekvat chiqish ko`nikmasini shakllantirish.

Hayotiy vaziyatlarda uchraydigan voqealarni tahlil qilish orqali hech qanday tajovuzkor so'zlarni ishlatmagan holda, surbet odamni o'z o'rniga qo'yib qo'yish.

«Itimos»

Maqsad: o'z iltimosini bildirish ko'nikmasini shakllantirish. Ishtirokchilar juftliklarga bo'linib, bir-birlaridan originallik, topqirlik, ustamonlik va xushmuomalalik ila biron narsani iltimos qiladilar.

5-mashg'ulot

«Yarim og'iz so'z»

Ishtirokchilar doira bo'lib o'tiradilar. Ularning har biri xursand holda salomlashish uchun aytmoqchi bo'lgan so'zlarining yarmini aytadilar, qolganini esa yonlaridagi sheriklari davom ettiradi.

«Muqobil dalillar»

Maqsad: o'zini o'zi ko'rsatish sharoitlarini yaratish; kontrargument va munozarani uyushtirish ko'nikmalari.

Har bir guruh a'zosi o'zidan qoniqmagan bo'sh jihatlarini aytib beradi. Qolgan a'zolar uning bu jhati ma'lum vaziyatlarda ijobiy fazilat ekanligini tushuntirishga harakat qiladilar.

«Barchaning e'tiborida»

Maqsad: muomalaning verbal va noverbal vositalarini umumlashtirish; muomalaning turli vositalarini qo'llagan holda atrofidaqilarning diqqatini jamlashtirish malakasini shakllantirish.

Barcha ishtirokchilar aynan bir masalani atrofidaqilarni jalb qilgan holda (albatta jismoniy kuch ishlatmay) hal qilishlari kerak.

«Mehribonlik»

Maqsad: atrofidaqilarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish. Ishtirokchilar guruh a'zosidan birining eng ijobiy insoniy fazdilatlaridan foydalanib, mustaqil tarzda hikoya tuzadilar.

«Yoqimli doira»

Maqsad: empatiyani rivojlantirish.

Ishtirokchilar qo'llarini ushlagan holda doira hosil qiladilar, doira o'rtasida turgan ishtirokchi har bir guruh a'zosining yoniga kelib, so'zsiz, ko'zi bilan xayrlashadi.

6-mashg'ulot

«O'ylab ko'r, oldindagi kim» Ishtirokchilar ko'zlari bog'langan holda xonadagi guruhdoshlaridan birini paypaslab, uning kimligini ta'riflab, ismini topadilar.

«Oyna»

Maqsad: o'z tanasining «tilini» anglashni rivojlantirish; refleksiya va empatiyani rivojlantirish. Ishtirokchilar «yetakchi» va «boshqaruvchi» roliga. Etakchi tanasi bo'ylab harakatlarni bajaradi, boshqaruvchi esa uning har bir harakatini go'yo «oynadagi timsoli» kabi qaytaradi.

«Rolli o'yinlar bahsi»

Maqsad: muloqotchanlik ustanovkalarini shakllantirish; o'z holatini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Ishtirokchilar uch guruhga bo'linib: 1. Men doimo senga achinaman. Ushbu hisdan qanday qutilsam ekan? 2. O'zimdan o'zim nafratlanaman. Nima qilsam ekan? 3. Menda ko'pincha, ayniqsa, hozir tushkunlik holati hukmronlik qiladi. Uni qanday o'zgartirsam ekan? - degan savollarga javob izlaydilar. So'ng guruhliy mushohada davom etadi.

«Men o'zimni yaxshi ko'raman, chunki men...»

Maqsad: o'zini o'zi konstruktiv baholashni shakllantirish. Hamma doira shaklida o'tirib, o'zining eng ijobiy hislatlarini aytadilar.

«O'ziga o'zi xat yozish»

Maqsad: o'ziga adekvat munosabatni shakllantirish. Ishtirokchi o'ziga o'zi xat yozadi. Unda o'zidagi mavjud ijobiy munosabatlar bitilgan bo'ladi. Har bir xat o'qib eshittiriladi va muhokama qilinadi.

«O'zim haqimda»

Maqsad: atrofida gilardan o'zi haqidagi axborotni olish.

Ishtirokchilar oilaviy turmush tarzi, do'stlari, qiziqishlari to'g'risida rasm chizadilar va uni muhokama qiladilar. Sarflanadigan vaqt: 20 daqiqa.

«Podshohi olam»

Maqsad: Har bir ishtirokchi «podshohi olam» rolda buyruq beradi va amr etadi. Aytish kerakki, har bir podshohi olam o'z boshqaruv va buyruq uslubiga ega bo'lishi shart.

«O'zimning afzallik deklaratsiyam»

Maqsad: o'zida ijobiy ustanovkalarni shakllantirish.

Ishtirokchilar o'zgalardan farq qiluvchi afzalliklari bitilgan deklaratsiyani ovozlari chiqarib o'qib eshittiradilar. So'ngra ularning har biri «Men - bu men», «Men ajoyibman» - degan so'zlarni baland ovozda qaytaradilar.

7-mashg'ulot

«Yashirincha salom»

Maqsad: o'zini o'zi baholashni ko'tarish va tarbiyalanganlikni shakllantirish.

Ishtirokchilarga uch xil xulq (ishonchli, sust va tajovuzkor) yo'nalishi bo'yicha vaziyatni tahlil qilish beriladi.

Dugonangiz uchrashuvga kiyib chiqish uchun Sizning eng yaxshiko'rgan ko'ylagingizni so'radi, biroq Siz berishni xohlamayapsiz.

Sizga yoqqan narsani sotib olishingiz uchun pul yetmayapti, o'rtog'ingiz Sizdan qarz olganiga ancha bo'lgan, ammo yaqin oradaberish niyati yo'qqa o'xshaydi. Undan qanday so'raysiz? Vaziyat tahlil qilinadi.

«Atraktsiya»

Maqsad: o'ziga adekvat munosabatni shakllantirish; o'zini o'zi qabul qilish.

Ishtirokchilar oynaga qarab o'zlariga o'zlari xushomad qiladilar, o'zlarini o'zlari maqtaydilar, eng yaxshi istaklarni bildiradilar.

«Stereotiplar»

Maqsad: ijobiy va salbiy gender stereotiplarini qayta ko'rish; o'zgalarga bog'liq bo'lgan harakatlarni anglash. Ishtirokchilar ikki guruhga bo'linib, erkak va ayollarga xos sifatlarni yozib chiqishadi, ularni muhokama qiladilar.

«Maqtov»

Maqsad: bir-biriga nisbatan ijobiy ustanovkalarni mustahkamlash.

Bir ishtirokchi doira ichida, atrofida gilarining barchasi faqat uni maqtaydilar. So'ngra maqto'v kimga qanday ta'sir etganligi muhokama qilinadi.

«Omadsizlarsiz»

Maqsad: hayotiy voqealar taxlili davomida orttirilgan bilimlarni mustahkamlash; ichki nizodan chiqish usullarini muhokama qilish. Ishtirokchilarga hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish tavsiya etiladi.

8-mashg'ulot

«Taassurot»

Ishtirokchilar doira bo'lib o'tirib, birinchi kelgan kunlarida yonma-yon o'tirgan o'z «qo'shnilari» bilan ilk taassurotlarini qayta yod etadilar. Dasturda ishtirok etish davimida nimani his qilganliklarini muhokama qiladilar. O'zlarida yuz bergan o'zgarishlar bilan o'rtoqlashadilar.

3.3. Korreksion ishlarniyakuni va samaradorligini oshirish usullari

Deviant xulqli o'smirlar bilan pedagogik korreksion va texnologik ishlar amalga oshirilgandan so'ng olib borilgan suhbat natijalari shuni ko'rsatdiki, deviant xulqqa moyil o'smirlarni o'ziga, shaxsiga xos xususiyatlari, boshqalar bilan munosabatlari va atrofida gilarining unga bo'lgan munosabatlarida muayyan o'zgarishlar aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajribada o'tkazilgan trening mashg'ulotlari so'nggida "Deviant xulq -atvor tashhisi metodikasi" qayta o'tkazildi va natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

“Deviant xulq -atvor tashhisi metodikasi” bo'yicha aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqich natijalarining qiyosiy tahlili


4- jadval

№	Shkalalar	1-guruh	2-guruh
---	-----------	---------	---------

		Aniqlovchi Bosqich	Shakllantiru vchi bosqich	Aniqlovchi bosqich	Shakllanti- ruvchi bosqich
1	Ijtimoiy xohishga yo'naltirilgan	12.6	14,5	13.4	15,7
2	Me`yor va qoidalarni buzishga moyillik	20.2	17,3	17.5	14,6
3	Addiktiv axloqqa moyillik	12.8	11,7	14.6	11,7
4	O'z o'ziga zarar Keltiruvchiva o'zini o'zi parchalovchiauxloqqa Moyillik	16.9	12,6	13.2	11,6
5	Tajovuzkorlik va zo'ravonlikka moyillik	19.6	15,8	23.2	17,2
6	Hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi	12.3	16,4	10.2	13,3
7	Delinkvent axloqqa Moyillik	14.7	10,3	16.4	12,7

4-diagramma

“Deviant xulq -atvor tashhisi metodikasi” bo’yicha aniqlovchi va shakllantiruvchi bosqich natijalarining qiyosiy tahlili



Jadvaldagi ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, olib borilgan psixoprofilaktik va pedagogik korrekson ishlar deviant xulqqa moyilligi bor deb aniqlangan o’smirlarda o’z xatti-harakatlarini ijtimoiy xohishlarga mos tarzda yo’naltirish har ikki guruhda ham ortgan (guruhda 12,6 dan 14,5 ga, 2-guruhda esa 13,4 dan 15,7 ga). Me’yor va qoidalarni buzishga moyillik, addiktiv axloqqa moyillik, o’z-o’ziga zarar keltiruvchi va o’zini o’zi parchalovchi axloqqa moyillik, tajovuzkorlik va zo’ravonlikka moyillik, delinkvent axloqqa moyillik shkalalari bo’yicha ko’rsatkichlar pasaygani holda hissiy reaksiyalarni ixtiyoriy nazorat qilish shkalasi bo’yicha natijalar ortgan. Bu o’z navbatida o’smirlar bilan tizimli dasturlar asosida olib borilgan ijtimoiy pedagogik korreksion tadbirlar ularda deviantlik va boshqa salbiy xulq shakllarining rivojlanishining oldini olishga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuning uchun o’smirlarda og’ishgan xulqning shakllanishini o’z vaqtida profilaktika qilish chora-tadbirlarini qo’llash muhimdir.

III –bob bo’yicha xulosalar

Tadqiqot ishining uchinchi bobi o’smirlik davrida deviant xulq-atvorni shakllanganligini profilaktik va pedagogik korreksion chora-tadbirlar va deviant

xulqqa moyil o'smirlarni korrektsiya qilish dasturi ishlab chiqilgan. Unda o'smirlar guruhida mazkur dastur va texnologiya asosida tajriba ishlari o'tkazilib, natijalar tahlil qilindi. Muammo doirasida to'plangan amaliy va nazariy ma'lumotlarga asoslanib quyidagi xulosalarni keltirib o'tish joiz.

- Deviant xulq-atvorli o'smirlar bilan ishlashning ikki asosiy texnologiyalari, profilaktik va rehabilitatsion ishlar fan va amaliyotda keng tarqalgan;
- Deviant xulqqa moyil o'smirlar bilan ishlashda pedagogda kuchli bilim va sabr bo'lishi lozim;
- O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondoshuvi chuqur tahlil etish va ulardan tatbiqiy tizim ishlab chiqildi.
- O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondoshuv shakli, vosita va metodlari aniqlandi.
- O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondoshuv metodikaning samaradorlik darajasini aniqlandi.
- O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondashuvlar bilan boyitildi. Ularda axloqiy tarbiya to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish metodikasiga, uning shakl, usul, vositalariga ega bo'lindi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

O'smirlik davrida namoyon bo'ladigan deviant xulq-atvor tabiatini o'rganish, pedagogik korrektsiyalash texnologiyasi masalasiga bag'ishlangan tadqiqot ishiga oid nazariy malumotlar tahlili, olib borilgan sinov-tajriba ishlari natijasi asosida, quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

1. O'smir shaxsidagi deviant xulqqa moyillik ularning yoshga xos xususiyatlari, tarbiyasidagi "qiyinlik", o'tish davriga xoslik bilan bog'liq.
2. O'smirlik davrida deviantlikka moyillikni shakllanishiga ham biologik, ham ijtimoiy omillar birday ta'sir etadi.
3. O'smirning o'ziga, atrofdagilarga, voqea-hodisalarga munosabati, dunyoqarashi, irodaviy sifatleri, hissiy holatlari - xavotirlanish, hissiy zo'riqish va boshqa kechinmalari unda turli antiijtimoiy ehtiyojlarning vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatadi.
4. O'smir shaxsidagi mavjud ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatining cheklanganligi o'rtasida qarama-qarshilik ularda deviantlikka moyillikni vujudga keltiradi.
5. O'smirlik davrida shakllangan xarakter aktsentuatsiyasi tipi va barqaror shaxs xususiyatlari ta'sirida o'zini o'zi tasdiqlash, o'z imkoniyatlarini namoyon etish ehtiyojlari ham ularni qonun-qoidalarini buzish harakatini sodir etishga undaydi.
6. Deviantlikning shakllanishida ijtimoiy omillarning, xususan o'zini o'zi anglashning ta'siri yuqori bo'lganligi sababli ular bilan olib boriladigan tizimli va uzoq muddatli korrektsion va profilaktik ishlar yaxshi samara beradi.
7. O'smir shaxsidagi salbiy shaxs sifatlarining ortib ketishi ularda agressiv xulq-atvorni yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida shaxslararo munosabatlar tizimida qoniqmaslikni vujudga keltiradi;
8. O'quv faoliyatidagi turli ziddiyatli holatlar, darsga tayyor emaslik o'qituvchi bilan bo'ladigan munosabatlardagi noxushliklar, tengdoshlar davrasida o'z mavqeini mustahkamlashga intilish ham ijtimoiy normalarni buzilishiga olib keladi.
9. Dars jarayonida o'quvchilarning fanlarga bo'lgan, qiziqishi, ma'naviy

tarbiyalanganlik darajasini suhbat, test, pedagogik kuzatish, orqali o`rgandik;

10. Darsda va darsdan tashqari ma'naviy –ma'rifiy tadbirlar, kechalar, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshuvlar orqali o`quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish, ma'naviy merosimizdan foydalanish yo'llariga oid bilimlar yanada takomillashdi.

11. Darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonda o`quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondoshuvlar samaradorligi aniqlandi va bu o`quvchlarni ma'naviy merosimiz orqali komil insonni tarbiyalashga xizmat qiliuvchi omillardan biri ekanligi isbotlandi .

Yuqoridagi fikr-mulohazalar bizga deviant xulq-atvorga ega o'smirlar bilan faoliyat olib boruvchi ota-onalar, pedagoglar, voyaga yetmagandlar nazorati bo'limi xodimlari va tarbiyachilarga amaliy tavsiyalar berish imkoniyatini vujudga keltirdi.

1. Oilaga ijtimoiy-pedagogik xizmatni uyushtirish zarur.
2. Har bir o'smir bilan ijtimoiy-pedagogik xizmat doirasida tizimli ishlarni tashkil etish kerak.
3. Ota-ona va farzandlar uchun tibbiy-psixologik-pedagogik maslahat xonalarini tashkil etish va yuqori darajadagi xizmatni amalga oshirish lozim.
4. Deviant xulq bo'yicha aniq psixodiagnostik va pedagogik korreksiya dasturlarini ishlab chiqish;
5. Muayyan tamoyillarga rioya qilgan holda profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;
6. Zudlik bilan dezadaptatsiyaga ega o'smirlarni aniqlash uchun ijtimoiy - psixologik diagnostikani amalga oshirish zarur;
7. Har bir shunday xulqqa moyil o'smir bilan ish olib borganda vaziyatni hal etishga differentsial yondashuv kerak bo'ladi;
8. Xulq-atvor buzilishiga sabab bo'luvchi har qanday nomaqbul dezadaptatsiya muhitini aniqlash va o'zaro ta'sir kuchiga ega bo'lgan omillarni izlash;

9. Yosh avlodni kamolotga yetkazish ishlariga mas'ul barcha shaxslarga deviant xulq-atvor dezadaptatsiyasi bilan bog'liq pedagogik va psixologik bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishlari uchun imkon yaratish;
10. O'smirlarning hali to'liq shakllanib ulgurmagan nerv tizimi va psixik jarayonlarining osonlikcha jarohatlanishini hisobga olgan holda ularga individual munosabatni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.
-o'smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik fiziologik o'zgarishlarni hisobga olish;
11. O'smirlar bilan ishlashning individual uslubini ishlab chiqish;
12. O'smirlarda muomala madaniyati va ijtimoiy xulq normalariga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish;
13. O'smirlarni kundalik faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilishga e'tibor berish lozim.
14. Tarbiyani demokratiyalashtirish zarur bu tarbiyani ma'muriy extiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamotchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish lozim.

Shunday qilib, ijtimoiy ma'naviy muhitimizni sog'lomlashtirish, oila, mahalla, maktab hamkorligining uyg'unlig'iga erishish bugungi kunning ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy-tarbiyaviy zarurati sifatida jamiyatimiz taraqqiyotiga qo'shajak hissamizga ko'p jihatdan bog'liq bo'lib, yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirish umuminsoniy burchimiz ekanligini anglashimizga yanada aniqlik kiritadi.

O'smirlik davridagi o'quvchilarini yakka tartibda tarbiyalashda yangicha yondoshuvlar jarayonida bolalar ma'naviyatini yanada rivojlantirishda ma'naviy merosidan foydalanish yo'llarini ta'lim-tarbiya jarayonida keng targ'ib qilish ma'suliyatli ishlarni amalga oshirish davr talabidir. Modomiki, aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanotini tashkil etar ekan, biz pedagoglar bu sohada o'z fidoiyligimizni amalda isbot qilishga intilmog'imiz

shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

- 1.1. Каримов.И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат. Т. Ўзбекистон. 1992. 115-б
- 1.2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” Т.1997 й. 10-б.
- 1.3. Каримов.И.А. Баркомол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.: 1997 й. 42-б.
- 1.4. Каримов.И.А . Миллий истиқлол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончидир. – Т.:Ўзбекистон, 2000 й. 40 -б.
- 1.5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Т.: Ma’naviyat, 2008. 65-b
- 1.6. O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-2124-son Qarori
- 1.7. Мирзиёев.Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 24 йиллига бағишланган тантанали маросимдаги марузаси. “Халқ сўзи”201 6. 7 декабир.
- 1.8. Мирзиёев.Ш.М. Мамлакатимизни 2016 йил ижтимоий-иқтисодий ривожланишини асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг утivor йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисдаги марузаси. “Ўзбекистон овози” 2017 й. 16-январ 7-8 (32-223) сон.
- 1.9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.
– Т.: Ўзбекистон, 2017. – 102 б.
- 1.10 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. “Халқ сўзи” 2017 й. 8-февраль,

II. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar

- 2.1. Аваесова О. Инқирозий вазиятларга дуч келган кишиларга психологик ёрдам кўрсатиш. Т.-2006. 74-б.
- 2.2. Бартол К. “Психология криминалнога поведения”. С-П., М.:2004 г. 87-92 с.
- 2.3. Большой толковый психологический словарь / Пер. Сангл. – М.: Ребер Артур, АСТ, Вече, 2003. Т. 1 (А-О). – 392 с.
- 2.4. Davletshin M.G. Tanlangan ilmiy ishlar to'plami. – T: 2008. – 81 b.
- 2.5 Davletshin M.G. YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. T.2002 y. 105-b
- 2.6 Дубровина Н.В “Практическая психология образования” - М.: Творческий мир сфера, Tvorcheskiy mir sfera, 1998. - 125 с.
- 2.7. Дяченко М.И. Кандыбович Л.А. Психологический словарь – справочник. – Минск.: Харвест, 2007. – 276с.
- 2.8. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Т.2009 й. 163-195 б.
- 2.9. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya T.2008 196-b
- 2.10. Karimova V, Akramova F. Psixologiya (ma`ruzalar matni).-T.:2002.-103b.
- 2.11. Kamilova N.G`. “Muammoli o'smir”. Tashxis, tadqiqot metodlari. T. 2006 y. 30-37.b
- 2.12. Корнилова Т. “Подростки групп риска” С-П.б. 2005г.96-с
- 2.13. Komilova N. “Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi” T. 2014. 91-102bet
- 2.14. Komilova N “Ijtimoiy reabiltatsiya” T.2014 110-121 b.
- 2.15. Маклаков А.Г. Общая психология: учебник для вузов. СПб: Питер, 2008.- 283с.
- 2.16. .Ma`naviyat yulduzlari: To'ldirilgan qayta nashr. – T: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri. 2001. – 78-b.
- 2.17. Jumanazarov Yo. Yosh va pedagogik psixologiya. Uslubiy majmua-Namagan 2009. 72-80-153-160. b.

- 2.18. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat T., 2006 135-b
- 2.19. Nishonova Z.T. Xalilova N.I. Psixokorreksiya T., 2007. 156-b
- 2.20. Nishonova Z.T. va boshqalar. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya T. “Tafakkur bo’stoni”,-2011. 284-296 b.
- 2.21. Немов Р.С. Общая психология: краткий курс. СПб. Питер, 2009.- 304с
- 2.22. Немов Р.С. Психология. Учебник для ВУЗов. В 3-х кн. – М.: ВЛАДОС 2001. Кн. 2. – 308 с.
- 2.23. Реан А.А Практическая психодиагностика личности: - СПб., 2001.- 224 с.
- 2.24. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога:- М,1998.268с.
- 2.25. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2009. – 256 с.
- 2.26. Tulaganova G.K. “Tarbiyasi qiyin o’smirlar”. T:2004y. 95-99 b
- 2.27. Tulaganova G.K. “O’smirlik davrida psixopat buzilishlarni tadqiq qilish” // XX1 asr psixologiyasining dolzarb muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari T:i 2011.182-183 betlar T:2004y.
- 2.28.Tulaganova G.K., Tulaganova SH.E. Tarbiyasi qiyinlikda xushxulqlilikning tavsiflari va mezonlari// XX1 asr psixologiyasining dolzarb muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari T:2011.180-182
- 2.29. Турғунов Қ. Психология терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т: Ўқитувчи, 1998 й. 195-б.
- 2.30. Umarov B.M “O’zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari” Avt...ref.dok... dis. 2010y. 75-b
- 2.31.Хагуров “Введение в современную девиантологию”. М.:2001. 144-с
- 2.32. SHaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi.-(metodik qo’llanma) T.: «Fan va texnologiyalar», 2010. – 162b.
- 2.33. Шнайдер Л.Б. “Девиантное поведение детей и подростков”. М:2005y. 46-54 с.
- 2.34. Қодиров К.Б. “Қадриятлар йўналишлари саволномаси”, Т, 2000. 38-б

- 2.35. Қодиров К.Б. “Шахс йўналганлигини аниқлаш”, Т, 1998. 56-б
- 2.36. Ғозиев Э.Психология- Т: Ўқитувчи. 1994.10-15-42-б
- 2.37. G`oziev E., Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi..Т, 2003. 115-126.b
- 2.38. Haydarov F.I. O`quv faoliyati motivatsiyasi. – Т.: Fan, 2005. – 122 b.
- 2.39. Haydarov F.I.Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Т.:2010. 102-b
- 2.40. Qurbonova Z. Xulqi og`ishgan bolalar psixologiyasi. Maruzalar matni. Namangan .1-6-35-40 b

INTERNET MATERIALLARI

WWW.pedagog.uz

WWW.TDPU.uz

[ZiyoNET.www.@mail.ru](mailto:ZiyoNET.www@mail.ru)

www.bilimdon.uz

www.google.ru

Ilovalar

Bass-Darki so'rovnomasi

1. Ba'zan boshqalarga zarar yetkazish xoxishimni yenga olmayman.
2. Ba'zan yoqtirmagan kishilarimni g'iybat qilishim mumkin.
3. Oson jahlim chiqadi, lekin tez tinchlanaman.
4. Agar yaxshilik bilan so'rashmasa iltimoslarini bajarmayman
5. Har doim ham o'zimga tegishli narsalarga ega bo'la olmayman
6. Ba'zan meni g'iybat qilishlarini bilaman
7. Do'stlarimni qo'llab-quvvatlamasam, buni tushunib etishlariga imkon beraman.
8. Kimnidir aldashimga to'g'ri kelsa, anchagacha vijdonim qiynalib yuradi.
9. Menimcha, boshqalarga qo'l ko'tara olmasam kerak
10. Boshqalargau yoki bu predmetni uloqtiradagan darajada jahlim chiqmasa kerak
11. Boshqalarning kamchiliklariga doimo kechirimli munosabatda bo'laman
12. Agar qonun- qoidalar menga yoqmasa, ularni buzgim keladi
13. Boshqalari doimo qulay imkoniyatdan foydalana olishadi
14. Kutganimdan ko'ra menga ko'proq do'stona munosabatda bo'layotganlar bilan ehtiyotkorroq munosabatda bo'laman
15. Ko'pincha boshqalarning fikriga qo'shilmayman
16. Ba'zan miyamga o'zim ham uyalaligan fikrlar kelib qoladi
17. Kimdir menga qo'l ko'tarsa unga javob qaytarmayman
18. Jahlim chiqqanda eshiklarni qarsillatib yopaman
19. Men boshqalar o'ylagandan ko'ra serjahlroqman
20. Kimdir o'zini rahbarlarga xos tuta boshlasa, unga qarshi harakat qilaman

21. Ba'zan taqdirimdan xafa bo'lib ketaman
22. Ko'pchilik meni yoqtirmasligini bilaman
23. Agar fikrimni qabul qilishmasa, bahsdan o'zimni to'xtata oliayman
24. Ishni ko'ngildagidek bajarmagan kishi o'zini aybdor his qilishi kerak
25. Kim meni va oilamni haqorat qilsa, unga qarshi hamma narsaga tayyorman
26. Qo'pol hazil qila olmayman
27. Ustimdan hazil qilib kulishsa, g'azablanaman
28. Ba'zilar o'zini rahbar qilib ko'rsatsa, o'zboshimchalik qilmasliklari uchun hamma narsaga tayyorman
29. Deyarli har hafta o'zimga yoqmaydigan kimnidir ko'raman
30. Ko'pchilik menga hasad qilsa kerak
31. Meni hurmat qilishlarini talab qilaman
32. Ota-onam uchun juda kam narsa qilganim meni qattiq tashvishlantiradi
33. G'ashingizni keltiradigan kishilarni o'zingizdan yiroqlashtirish kerak
34. Nafratdan hech qachon mayus bo'lib qolmayman
35. Menga mavqeimga mos munosabatda bo'lishmasa xafa bo'lmayman
36. Kimdir jahlimni chiqarmoqchi bo'lsa, unga e'tibor bermayman
37. Boshqalarga bildirmaslikka harakat qilsam ham, ba'zan hasad qilaman
38. Ba'zan ustimdan kulish mumkin deb o'ylayman
39. Hatto jahlim chiqsa ham " kuchli" iboralarni qo'llamayman
40. Gunohlarim avf etilishini xoxlayman
41. Hatto kimdir menga qo'l ko'tarsa ham unga shunday tarzda javob bermayman
42. Ishlar men o'ylagandek bo'lmasa qattiq xafa bo'laman
43. Ba'zilarining hatto tashrifi ham jahlimni chiqaradi
44. Men qattiq nafratlanadigan kishilar yo'q.
45. Mening tamoyilim " Hech qachon begonalarga ishonma"
46. Kimdir jahlimni chiqarsa, yuziga u hoqda nimani o'ylashimni ayta olaman

47. Afsuslanadigan ko'p ishoar qilishim mumkin
48. Jahlim chisa kimnidir urib yuborishim mumkin
49. Bolaligimdan buyon hech qachon nafrat olovini yoqmaganman
50. Ko'pincha o'zimni hozir portlashi mumkin bo'lgan porox bochkasiga o'xshataman
51. Mening nimani his qilayotganimni bilishganda edi, men bilan kelishish qiyinligini anglab etishar edi
52. Menga yaxshilik qilish uchun odamlarni qanday sirli sabablar undagan bo'lishi mumkin deb o'ylayman
53. Menga baqirishsa, men ham baqira boshlayman
54. Omadsizlik meni qattiq tashvishlantiradi
55. Men boshqalardan ko'p ham, kam ham janjallashmayman
56. Ba'zan jahlim chiqqanidan qo'limga tushgan narsani sindirib, otib yuborgan vaqtlarim bo'lganini eslayman
57. Ba'zan men birinchi bo'lib janjalni boshlashim mumkin
58. Ba'zan hayot menga shafqatsizlarcha munosabatda bo'layotgandek tuyuladi
59. Ko'pchilik odamlar to'g'ri gapirishadi deb o'yildim, hozir bunga ishonmayman
60. Faqat jahlim chiqqanda so'kinaman
61. Agar noto'g'ri harakat qilsam, vijdonim qiynaladi
62. O'z huquqlarimni himoya qilish uchun jismoniy kuch ishlatish zarur bo'lsa, men bunga tayyorman
63. Ba'zan nafratimni stolga urish orqali ifodalayman
64. Menga yoqmaydigan odamlarga nisbatan qo'pollik qilishim mumkin
65. Menga zarar etkazadigan dushmanlarim yo'q
66. Ko'pincha noto'g'ri yashadim deb hisoblayman
67. Meni urishish darajasiga olib kelishi mumkin bo'lgan odamlar bor
68. Men ikir-chikirlarga g'azablanmayman
69. Ba'zilar mening jahlimni chiqarishga va xafa qilishga harakat qilishadi

70. Men ko'pincha tahdid qilaman xolos, tahdidni amalga oshirmayman
71. So'nggi paytlarda men ancha odamovi bo'lib qolganman
72. Ko'pincha bahslarda oaozimni kztarib yuboraman
73. Boshqalarga bo'lgan salbiy munosabatimni yashirishga harakat qilaman
74. Bahslashishdan ko'ra, kelishishni ma'qul ko'raman

Natijalar tahlili

Natijalar sakkizta shkala bo'yicha quyidagicha baholanadi:

Jismoniy tajovuz: Ha – 1 ball, yo'q- 0 ball. 1,25, 31,41,48,55,62,68. Yo'q- 1 ball, ha- 0 ball. 9,7.

Vositali tajovuz: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball. 2,10,18,34,42,56,63. Yo'q- 1 ball, ha- 0 ball 26, 49.

Qo'zg'aluvchanlik: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball. 3,19,27,43,50,57,64,72. Yo'q- 1 ball, ha- 0 ball 11,35,69.

Negativizm: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball. 4,12,20,28. Yo'q –1 ball, ha- 0 ball. 36.

Xafalik hissi: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball. 5,13,21,29,37,44,51,58.

SHubhalanuvchanlik: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball. 6,14,22,30,38,45,52,59. . Yo'q –1 ball, ha- 0 ball. 33,66,74,75.

Verbal tajovuz: Ha –1 ball, yo'q- 0 ball . 7,15,23,31,46,53,60,71,73. Yo'q – 1 ball, ha- 0 ball. 33,66,74,75.

Aybdorlik hissi: Ha- ball, yo'q- 0 ball. 5,8,16,24,32,40,47,54,61,67.

Dushmanlik indeksi o'z ichiga 5 va 6-shkalalarni oladi, tajovuzkorlik shkalasi tarkibiga esa 1,3,7- shkalalar kiradi.

Tajovuzkorlikning normasi (me'yor) 21 +4, dushmanlik indeksi normasi esa 6,5 - 7 + 3.

Bass-Darki tomonidan ajratilgan tajovuz turlarining mohiyati quyidagicha:

Jismoniy tajovuz – boshqalarga qarshi jismoniy kuch ishlatish

Vositali tajovuz – boshqalarga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki aylanma yo'llar orqali ta'sir o'tkazish

Qo'zg'aluvchanlik – arzimas qo'zg'atuvchilar ta'siriga ham salbiy his-tuyg'ular bilan javob berishga tayyorlik

Negativizm – passiv qarshilik ko'rsatishdan faol kurashgacha bo'lgan xulq-atvordagi oppoztsion uslub

Xafalik hissi – atrofdagilarning anglangan va real xulq-atvoriga nafrat va hasad bilan qarash.

Shubhalanuvchanlik – boshqalarga nisbatan munosabatlardagi ishonsizlik va ehtiyotkorlikdan to o'zgalar menga zarar yetkazishni rejalashtirayapti degan fikrning mavjudligi

Verbal tajovuz – Salbiy his-tuyg'ularning nutqiy tarzda (qarg'ash, so'kish va boshqalar) ifodalanishi

Aybdorlik hissi – sub'ekt tomonidan o'zini boshqalarga yomonlik qiluvchi kishi deb baholash, vijdon azobini his qilish.

Bass-Darki so'rovnomasining javoblar varag'i

Tasdiqlar raqami	“ Ha”	“Yo'q”
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		
9		
10		
11		
12		
13		
14		
15		
16		
17		
18		
19		

20		
21		
22		
23		
24		
25		
26		
27		
28		
29		
30		
31		
32		
33		
34		
35		
36		
37		
38		
39		
40		
41		
42		
43		
44		
45		
46		
47		
48		
49		
50		
51		
52		
53		
54		
55		
56		
57		
58		
59		
60		
61		
62		

63		
64		
65		
66		
67		
68		
69		
70		
71		
72		
73		
74		